

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirining
2025 yil "23" iyundagi
180-sonli buyrug'iga
3-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISH
MARKAZI**

**«QARI VA KEKSA YOSHLI BEMORLARDA YURAK QON
TOMIR KASALIKLARI - SURUNKALI YURAK ISHEMIK
KASALLIGI» NOZOLOGIYASI BO'YICHA MILLIY KLINIK
PROTOKOLLARI**

TOSHKENT – 2025

«KELISHILGAN»

Tibbiyot xodimlarining kasbiy
malakasini rivojlanish markazi
direktori

Professor X.A. Akilov



“ _____ ” 2025 yil

**«QARI VA KEKSA YOSHLI BEMORLARDA YURAK
QON TOMIR KASALIKLARI - SURUNKALI YURAK
ISHEMIK KASALLIGI» NOZOLOGIYASI BO‘YICHA
MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI**

TOSHKENT – 2025

**«QARI VA KEKSA YOSHLI BEMORLARDA YURAK QON
TOMIR KASALIKLARI - SURUNKALI YURAK ISHEMIK
KASALLIGI» NOZOLOGIYASINING TASHHISLASH VA
DAVOLASH BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI**

TOSHKENT -2025

Mundarija

«QARI VA KEKSA YOSHLI BEMORLARDA YURAK QON TOMIR KASALIKLARI - SURUNKALI YURAK ISHEMIK KASALLIGI» NOZOLOGIYASINING TASHHISLASH VA DAVOLASH BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI.....	4
«QARI VA KEKSA YoShLI BEMORLARDA YuRAK QON TOMIR KASALIKLARI - SURUNKALI YuRAK ISHEMIK KASALLIGI» NOZOLOGIYaSIDA TIBBIY ARALASHUVLAR BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI	70
"QARI VA KEKSA YoShLI BEMORLARDA YuRAK QON TOMIR KASALIKLARI - SURUNKALI YuRAK ISHEMIK KASALLIGI" NOZOLOGIYaSI TIBBIY PROFILAKTIKA VA REABILITASIYaSI BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI.....	79
«QARI VA KEKSA YoShLI BEMORLARDA YuRAK QON TOMIR KASALIKLARI - SURUNKALI YuRAK ISHEMIK KASALLIGI» NOZOLOGIYASINING PALLIATIV DAVOSI BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI	92

Kirish

10 KXT bo'yicha kodlar:	Yurak ishemik kasalligi MKB 10 - Ishemicheskaya bolezn serdsa (I20-I25) (mkb-10.com)	11 KXT bo'yicha kodlar:	Yurak ishemik kasalligi https://icd11.ru/ibs-ishenicheskaya-bolezn-mkb11/
I20	Stenokardiya [grudnaya jaba]	BA40	Angina pectoris
I20.1	Tasdiklangan spazli stenokardiya Tadiqlangan spazmli stenokardiya	BA40.0	Nostabil stenokardiya
I20.8	Stenokardiyaning boshqa turlari	BA40.1	Stabil stenokardiya
I20.9	Noanik stenokardiya	BA40.2	Mikrotomir stenokardiya
I25	Surunkali yurak ishemik kasalligi	BA40Y	Stenokardiyaning boshqa aniklangan turlari
I25.0	Aterosklerotik yurak kon tomir kasalligi	BA40Z	Stenokardiya noanik
I25.1	Yurak atesklerotik kasalligi	BA41	O'tkir miokard infarkti
I25.2	O'tkazilgan miokard infarkti	BA42	miokard infarktidan keyingi xolat
I25.3	Yurak anevrizmasi	BA5Z	Noaniq surunkali yurak ishemik kasalligi
I25.4	Toj tomirning anevrizmasi		
I25.5	Ishemik kardiopatiya		
I25.6	Belsgisiz miokard ishemiyasi		
I25.8	Surunkali yurak ishemiyaning boshqa turlari		
I25.9	Noaniq surunkali yurak ishemik kasalligi		

Protokolni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish sanasi: 2025 yil, qayta ko'rib chiqish sanasi 2028 yil yoki yangi asosiy dalillar mavjud bo'lganda. Taqdim etilgan tavsiyalarga kiritilgan barcha o'zgartirishlar tegishli hujjatlarda e'lon qilinadi.

Ushbu klinik protokol va standartni ishlab chiqish uchun mas'ul muassasa: Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi (TXKMRM) hisoblanadi.

Kardiologiya ishchi guruhining quyidagi a'zolari klinik protokol va standartni ishlab chiqishga hissa qo'shdilar:

Jarayonni tashkil etish borasida kardiologiya yo‘nalishidagi ishchi guruh a'zolari:

Protokolini ishlab chiqishga ma'sul muassasa:

- Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi.

Gerontologiya yo‘nalishi bo‘yicha ishchi guruh a'zolarining ro‘yxati:

Akilov Xabibulla Ataullaevich	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi direktori, tibbiyot fanlari doktori, professor
Xamrabaeva Feruza Ibragimovna	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi terapiya fakulteti dekani, gastroenterologiya va fizioterapiya kafedrası mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor
Talipova Yulduz Shavkatovna	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bosh gerontolog, geriatri, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining intervension kardiologiya va aritmologiya kursi bilan kafedrası dosenti, tibbiyot fanlari doktori
Tulaboeva Gavxar Mirokborovna	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining kardiologiya va gerontologiya, intervension kardiologiya va aritmologiya kursi bilan kafedrası mudiri O‘zbekiston Kardiologlar assosiasiyasi raisining o‘rinbosari, tibbiyot fanlari doktori, professor
Sagatova Xolida Maxmudovna	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining intervension kardiologiya va aritmologiya kursi bilan kafedrası dosenti, tibbiyot fanlari nomzodi
Nurillaeva Nargiza Muxtarxonovna	Toshkent tibbiyot Akademiyasi 1-sonli oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrası mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor
Tursunov Xotamjon Xasanboevich	Shifokorlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani, Andijon Davlat tibbiyot instituti ichki kasalliklar, kardiologiya va shoshilinch tibbiy yordam kafedrası professori, tibbiyot fanlari doktori
Fozilov Xurshid G‘ayratovich	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Bosh kardiologi, ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, tibbiyot fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Nizamov Ulugbek Irgashevich	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi kardiolog Bosh maslahatchisi, ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining davolash ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, tibbiyot fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

Mualliflar ro‘yxati:

Akilov Xabibulla Ataullaevich	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi direktori, tibbiyot fanlari doktori, professor
Talipova Yulduz Shavkatovna	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Bosh Gerontologi, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining intervension kardiologiya va aritmologiya kursi bilan kafedra dosenti, tibbiyot fanlari doktori
Tulaboeva Gavxar Mirokborovna	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining kardiologiya va gerontologiya, intervension kardiologiya va aritmologiya kursi bilan kafedra mudiri O‘zbekiston Kardiologlar assosiasiyasi raisining o‘rinbosari
Sagatova Xolida Maxmudovna	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining intervension kardiologiya va aritmologiya kursi bilan kafedra dosenti, tibbiyot fanlari nomzodi
Nizamov Ulugbek Irgashevich	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi kardiolog Bosh maslahatchisi, ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining davolash ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, tibbiyot fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

Taqrizchilar:

Kayumov Ulugbek Karimovich	Professor kafedra vnutrennix bolezney Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini oshirish markazining ichki kasalliklar kafedra professori, tibbiyot fanlari doktori
Gulmira Musaevna Baitova	Qirg‘iziston Davlat tibbiyot institutining qayta tayyorlash va malakasini oshirish oilaviy tibbiyot kafedrasida gerontologiya va geriatriya kurslari rahbari, Qirg‘iziston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Bosh Gerontologi, tibbiyot fanlari doktori, professor

Klinik protokol Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi **Markaziy tashkiliy-uslubiy Kengashida** muhokama qilindi va tasdiqlash uchun tavsiya etildi. **2025y. «19» may, bayonnoma № 9**

Klinik protokol Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi **Olimlar Kengashida** tasdiqlangan. 2025y. «28» may, bayonnoma № -51

Texnik ekspert baholash va tahrirlash:

Fayzieva Nozima Nurillaevna Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi "Preventiv tibbiyot - valeologiya asoslari" kafedra mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi, dosent

Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazir o‘rinbosari Basitxanova E.I, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

Qisqartmalar ro‘yxati

AAB	alfa-adrenoblokatorlar
AAF	angiotenzin-aylantiruvchi ferment
APFi	angiotenzin-aylantiruvchi ferment ingibitori
AB	arterial bosim
ABSm	arterial bosimning sutkalik monitoringi
ABUm	arterial bosimning uyda monitoringi
AG	arterialnaya gipertenziya
AGP	antigipertenziv preparat.
AGT	antigipertenziv terapiya
O‘KS	O‘tkir koronar sindrom
AIT	alaninaminotransferaza
ARA II	angiotenzin II reseptorlari antagonistlari
ASK	asetilsalisil kislotasi
AST	aspartataminotransferaza
BAB	β -adrenoblokatorlar
BMQAO‘B	bosh miya qon aylanishining o‘tkir buzilishi
BMSYo	birlamchi mediko-sanitar yordam
BUSh	buyraklarning o‘tkir shikastlanishi
BF	bo‘lmachalar fibrillyasiyasi
BX	bel hajmi
GK	gipertonik kriz
NASh	nishon-a'zolar shikastlanishi
DAD	diastolik arterial bosim
DGP	digidropiridin
DLP	dislipidemiya
EKJ	Evropa kardiologlar jamiyati
JSST	Jahon Sog‘liqni Saqlash tashkiloti
DI	isbotlanganlik darajasi
MI	miokard infarkti
IMQ	intima-media qalinligi
ISAG	izolirlangan sistolik arterial gipertenziya
KA	kalsiy antagonistlari
KT	kompyuter tomografiya

KFT	koptokchalar filtrasiyasi tezligi
KFT _x	koptokchalar filtrasiyasi tezligi hisobi
KXT-10	kasalliklarning xalqaro tasnifi-10
KD	qandli diabet
MAU	mikroalbuminuriya
MKA	mineralokortikoid reseptorlar antagonistlari
MRT	magnitno-rezonans tomografiya
MS	metabolik sindrom
MT	medikamentoz terapiya
GTB	glyukozaga tolerantlikning buzilishi
O _{Xs}	umumiy xolesterin
PGTT	peroral glyukozotolerant test
LPNP	past zichlikli lipoproteinlar
IKKS	Infarktdan keyingi kardioskleroz.
PTT	puls to'liqini tarqalish tezligi
RAAT	renin-angiotenzin-aldosteron tizimi
RNT	randomizatsiyali nazoratlangan tadqiqot
SAB	sistolik arterial bosim
SBK	surunkali buyrak kasalligi
O'SOK	o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi
SYuE	surunkali yurak etishmovchiligi
XSN pFV	surunkali yurak etishmovchiligi pasaygan otish fraksiyasi bilan
TMI	tana vazni indeksi
TG	trigliseridlar
LPI	to'piq-elka indeksi
TIX	Tranzitor ishemik xuruj
TOKA	teri orqali koronar aralashuv
TSM	tana sathi maydoni
UPKTK	umumiy periferik qon tomir qarshilik
UTT	ultratovush tekshirish
O'TX	o'rta tibbiy xodim
FR	xavf omili
X _s	xolesterin
SVK	Serebrovaskulyar kasalligi
ChK	chap qorincha
ChKG	chap qorincha gipertrofiyasi
ChKMVI	chap qorincha miokard vazni indeksi
ChKOF	chap qorincha otish fraksiyasi
EKG	elektrokardiografiya
ExoKG	exokardiografiya

YuE	yurak etishmovchiligi
YuEPOF	yurak etishmovchiligida pasaygan otish fraksiyasi
YuESOF	yurak etishmovchiligida saqlangan otish fraksiyasi
YuEUOF	yurak etishmovchiligida o‘rtacha pasaygan otish fraksiyasi
YuZLP	yuqori zichlikli lipoproteinlar
YuIK	yurak ishemik kasalligi
YuQS	yurak qisqarishlar soni
YuKTA	yurak-qon tomir asoratlari
YuKTK	yurak-qon tomir kasalliklari
YuKTX	yurak-qon tomir xavfi
EASD	Evropa Diabetni O‘rganish Assosiasiyasi
CKD-EPI	Chronic Kidney Disease Epidemiology Collaboration –
ESC –	Evropa kardiologlar jamiyati
ESH	evropa gipertoniya jamiyati
FDA	AQsh oziq-ovqatlar va dori vositalari boshqarmasi
HbA1c	glikirlashgan gemoglobin
MDRD	Modification of Diet in Renal Disease – buyraklar funksiyasini baholash shkalasi SCORE – Systematic Coronary Risk Evaluation (koronar xavfni tizimli baholash)
CHA2DS2VASc	Bo‘lmachalar fibrillyasiyasi mavjud bemorlarda insult xavfini baholash shkalasi

Protokoldan foydalanuvchilar:

Kardiologlar;

Terapevtlar;

Umumiy amaliyot shifokori;

Tez Eibbiy yordam shifokorlari;

Laborant shifokorlar;

Klinik farmakologlar;

Studentlar, klinik ordinatorlar, migstrlar, aspirantlar, Tibbiyot oliy talim muassasalarining o‘kituvchilari;

Bemor kategoriyasi: Stabil zo‘rikish stenokardiya bilan kasallangan qari va keksa yoshli bemorlar

Jadval 1.

Dalillarga asoslangan tibbiyotning, dalillari darajasi shkalasi.

EKJning tavsiyalari sinfi	Ta'rifi
I	Diagnostik muolaja, aralashuv/davolash samarali va foydali deb isbotlangan yoki umumqabul qilingan deb hisoblanadi
II	Diagnostik muolaja, aralashuv/davolashning samaradorligi/ foydasi to'g'risida qarama-qarshi ma'lumotlar va/yoki fikrlar
IIa	Ma'lumotlar/fikrlarning ko'pchiligi diagnostik muolaja, aralashuv, davolashning samaradorligi/foydasi afzalligini ko'rsatadi
IIb	Diagnostik muolaja, aralashuv, davolashning samaradorligi/ foydasi ishonchliligi kamroq deb aniqlangan
III	Diagnostik muolaja, aralashuv, davolashning befoydaligi/ besamaraligi to'g'risida ma'lumotlar yoki yagona fikr keltirilgan, bir qator hollarda esa ular ziyon etkazishi mumkin.

Jadval 2.

Dalillarning ishonchliligi darajasi

	Dalillar manbaasi
Uroven A	Ko'p sonli randomizasiyalangan klinik tadqiqotlar yoki meta-tahlillar ma'lumotlari
Uroven V	Ma'lumotlar bitta randomizasiyalangan klinik tadqiqot yoki yirik randomizasiyalanmagan tadqiqotlar natijalari bo'yicha olingan
Uroven S	Ekspertlarning kelishilgan fikri va/yoki kichik tadqiqotlar, retrospektiv tadqiqotlar, registrlar natijalari

2. Asosiy qism

2.1. Kirish.

Oxirgi o'nyilliklarda aholi o'rtasida sodir bo'layotgan keskin demografik siljishlar, o'rtacha umr ko'rish davomiyligining oshishi tufayli qarigan organizmning xususiyatlarini hisobga olgan holda aholiga davolash-profilaktika xizmatlarining yangi tamoyillariga ehtiyoj paydo bo'ldi. Gerontologik xizmatning rivojlanishi sog'liq uchun asosiy muammo hisoblanadi. Butun dunyoda, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda qariyalar (65 yoshdan katta) va keksalar (75 yoshdan katta)larning mutlaq soni bilan ulushi ortib bormoqda va so'nggi o'n yilliklarda bu foiz sezilarli darajada oshgan. Demograflar va sosiologlarning prognozlariga ko'ra, aholining qarishi davom etadi va 2025 yilga borib 60 va undan katta yoshdagilar soni 5 barobar ortadi, bu ko'rsatkich 2050 yilda 65 mamlakatda qariyalar ulushi 30 foizdan ortib, 60 va undan katta yoshdagi dunyo aholisi taxminan 9,8 milliard aholining jami 2 milliardini (20,4%) tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Buning muhim sabablaridan biri tug'ilishning kamayishi bilan birga keksalar o'limining asosiy sababi bo'lgan yurak-qon

tomir kasalliklarini davolashning takomillashganidir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda dunyoda 60 yosh va undan katta yoshdagilarning ulushi 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib u 24 foizga, 2050 yilga kelib uchdan bir qismga ko'tariladi. O'zbekistonda keksa yoshdagi aholi ulushi eng rivojlangan mamlakatlarnikiga yaqin va o'rtacha rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha yuqori va keksa aholi ulushi dinamikasi bo'yicha rivojlangan mamlakatlarga yaqinligi aniqlangan.

Yurak ishemik kasalligi barcha mamlakatlarda o'lim va nogironlikning asosiy sababi bo'lib kelmoqda, stenokardiya esa YuIKning eng tarqalgan simptomi hisoblanadi. Surunkali stabil stenokardiyaning davolashni yaxshilash strategiyasi kardiologiyaning asosiy ustuvor vazifasi bo'lib qolmoqda. Bemorlarning deyarli uchdan bir qismi hayot tarzini o'zgartirish nuqtai nazaridan ham, tavsiya qilingan antianginal preparatlar va/yoki teri orqali koronar yoki jarrohlik aralashuvlari jihatidan ham nooptimal terapiya olmoqdalar.

Optimal davolash uchun yurak ishemik kasalligi va stenokardiyaning patofiziologiyasini chuqur tushunmoq lozim. Stenokardiyaning aniq mexanizmi juda murakkab bo'lib, bunda eng asosiysi miokardning kislorodga ehtiyoji va ta'minlanishi o'rtasidagi nomutanosiblik hisoblanadi. Ko'pchilik qari va keksa yoyoshdagi bemorlarda koronar qon oqimini cheklovchi bitta yoki bir nechta epikardial koronar arteriyalarda aterosklerotik torayish aniqlanadi. Shu bilan birga, ba'zi bir qari va keksa yoyoshdagi bemorlarda koronar arteriyalarning ahamiyatga ega obstruktiv shikastlanishi bo'lmaydi hatto koronarografiyada normal koronar arteriyalar mavjudligi aniqlanadi, ammo ishemik kardiopatiya rivojlangan bo'ladi. Ushbu toifa bemorlarda stenokardiya mexanizmlari mikrosirkulyasiya darajasidagi koronar qon aylanishining funksional o'zgarishlari bilan bog'liq.

Turg'un stenokardiyali bemorlarda ishemiyaga qarshi terapiya 2 ta asosiy maqsadga muvofiq bo'lishi kerak:

o'tkaziladigan jismoniy zo'riqmalarni ko'tara olishni oshirish va hayot sifatini yaxshilash maqsadida simptomlarni xavfsiz engillashtirish;

o'tkir koronar tromboz tezlanishini pasaytirish va yurak etishmovchiligi rivojlanishi bilan bo'ladigan koronar ateroskleroz taraqqiy etishini sekinlashtirish hisobiga yurak-qon tomir hodisalarining, asosan, miokard infarkti va yurak-qon tomir kasalliklaridan bo'lgan o'limning oldini olish maqsadida prognozga ta'sirini yaxshilash.

Bundan tashqari, shuni ta'kidlab o'tish zarurki, xavf omillarining bartaraf etish davolashning muhim qismi hisoblanadi. Bemorlar bilan to'g'ri ovqatlanish, jismoniy zo'riqmalar, tamaki chekishdan voz kechish, tayinlangan preparatlarni qabul qilish qoidalariga rioya qilish to'g'risidagi suhbatlar, shubhasiz, o'tkazilayotgan medikamentoz terapiyaga muhim qo'shimcha bo'lib hisoblanadi.

Masalani yana bir muxim tomoni YuIK bilan og'rikan keksa yoshli bemorlarda kuzatiladigan komorbid xolatlar orasida gipertoniya kasalligi, buyraklar disfunktsiyasi, o'pka bronx tizimining surunkali obstruktiv xastaliklari, osteoartroz, osteoporoz va x.k. aloxida ahamiyatga ega bo'lib, YuQTTK olib keluvchi va ularni og'irlashtiruvchi mustaqil etakchi xavf omillar guruxiga kiradi. Bu esa o'z navbatida YuIK asoratlarini xususan yurak aritmiyalarni rivojlanishini erta tashxislash, samarali davolash va uning oldini olish zarurligini taqazo qiladi.

2) *Atamalar va ta'riflar*

Geriatrik sindrom - bu hayot sifatini yomonlashtiradigan, salbiy natijalar (o'lim, tashqi yordamga qaramlik, takroriy kasalxonaga yotqizish va uzoq muddatli parvarishga ehtiyoj) va funksional buzilishlar xavfini oshiradigan ko'p omilli yoshga bog'liq klinik holat. An'anaviy klinik sindromdan farqli, geriatrik sindrom organizmning ma'lum bir organi yoki tizimidagi patologiyaning namoyon bo'lmasligi, balki bir nechta tizimlardagi o'zgarishlar majmuasini aks ettiradi. Bir geriatrik sindromning paydo bo'lishi boshqa geriatrik sindromlarning rivojlanish xavfini oshiradi. Geriatrik sindromlarga quyidagilar kiradi: keksalik asteniyasi, demensiya, deliriy, depressiya, demensiya bilan bemorlarda xulq atvor va ruxiy buzilishlar sindromi, osteoporoz, sarkopeniya, funksional buzilishlar, harakatchanlikning pasayishi, muvozanat buzilishi, bosh aylanishi, ortostatik sindrom (ortostatik gipotenziya, simptomlar va bilan yoki simptomlarsiz ortostatik taxikardiya), sensor buzilishlar (ko'rish, eshitish qobiliyati pasayishi), peshob\najasnini tuta olmaslik, qabziyat sindromi, noto'g'ri ovqatlanish (malnutrisiya), suvsizlanish, surunkali og'riq sindromi.

dalillarga asoslangan tibbiyot – bemor sog'lig'i holatini baholashda va davolashda qaror qabul qilish jarayonida eng yaxshi zamonaviy dalillar (klinik tadqiqotlar natijalari) ni to'g'ri, ketma-ket va ongli ravishda qo'llash [DAT].

kasallik – patogen omillar ta'siri bilan paydo bo'ladigan organizm faoliyati, ishga layoqatliligi, tashqi va ichki muhit sharoitining o'zgarishlariga moslashish qobiliyati va shu bilan birga organizmning himoya – kompensator hamda himoya-moslashish reaksiyalari va mexanizmlari buzilishi.

instrumental diagnostika – bemorni tekshirish uchun turli asbob-uskunalar va moslamalarni qo'llash yordamida tashxis qo'yish.

oqibat – sababli omil, profilaktik yoki terapevtik aralashuv ta'sirida paydo bo'ladigan har qanday natija, salomatlik holatining aralashuv oqibatida paydo bo'ladigan barcha aniqlangan o'zgarishlar.

manfaatlar mojarosi – tibbiyot xodimi yoki farmasevt tomonidan professional faoliyatini amalga oshirishda o'zining shaxsiy manfaati uchun kompaniya vakili orqali moddiy foyda yoki boshqa biron-bir imtiyoz olishda paydo bo'ladigan vaziyat, bu tibbiyot xodimi yoki farmasevtning shaxsiy manfaatdorligi va bemor manfaatlari o'rtasida qarama-qarshiliklar natijasida tibbiyot xodimi yoki farmasevt tomonidan professional vazifalarning to'g'ri bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

klinik tekshiruv – tekshirilayotgan mahsulotlarning farmakologik samaralarini aniqlash yoki tasdiqlash va/yoki tekshirilayotgan mahsulotlarga noxush ta'sirlarni aniqlash uchun ularning xavfsizligi va/yoki samaradorligini baholash maqsadida so'rilishi, taqsimlanishi, metabolizmi va chiqib ketishi o'rganiladigan inson ishtiroki bilan o'tkaziladigan har qanday tadqiqot. «klinik sinov» va «klinik tadqiqot» sinonim hisoblanadi.

laborator diagnostika – turli maxsus asbob-uskunalar yordamida tekshirilayotgan biologik materialning tahlil qilishga qaratilgan uslublar yig'indisi.

dori vositalari – kasallikni profilaktika qilish, davolash, reabilitatsiya qilish uchun, homiladorlikdan saqlanish, homiladorlikning oldini olish va homiladorlikni to'xtatish uchun qo'llaniladigan dori shakllaridagi dori vositalari.

tibbiy aralashuv – tibbiyot xodimi yoki tibbiy faoliyatni yuritish huquqiga ega hodim tomonidan bajariladigan bemorga nisbatan insonning jismoniy yoki ruhiy holatiga tegishli va profilaktik, diagnostik, davolash, reabilitasion yoki tadqiqot yo‘nalishiga ega tibbiy tekshiruvlar va/yoki tibbiy muolajalar turlari, shuningdek, homiladorlikni sun‘iy to‘xtatish.

tibbiyot xodimi – tibbiy yoki boshqa ma'lumotga ega, tibbiyot muassasasida ishlaydigan va mehnat (lavozim) vazifalari tibbiy faoliyatdan iborat jismoniy shaxs yoki bevosita tibbiy faoliyatni amalga oshiruvchi individual tadbirkor bo‘lgan jismoniy shaxs.

o‘tkir miokard infarkti (O‘MI) – ishemiya natijasida qondagi biomarkerlarning o‘ziga xos o‘zgarishi bilan tasdiqlangan miokardning o‘tkir shikastlanishi (nekrozi).

o‘tkir koronar sindrom (O‘KS) – o‘tkir MI yoki nostabil stenokardiyani gumon qilishga imkon beruvchi klinik belgilar va simptomlarning har qanday guruhini bildiruvchi atama.

koronar shuntlash (KSh) amaliyoti – KAda gemodinamik ahamiyatga ega stenozdan distal qon oqimini yaxshilashga imkon beruvchi aylanib o‘tuvchi anostomozni o‘rnatish. Uslubga ko‘ra aortokoronar, mammarokoronar va boshqa turdagi shuntlash mavjud.

klinik tavsiyalarni ishlab chiqish/yangilash bo‘yicha ishchi guruh – klinik tavsiyalarni ishlab chiqish/yangilash maqsadida birgalikda va kelishgan holda ishlovchi va ushbu ishning natijalari uchun umumiy javobgarlikka ega mutaxassislar jamoasi.

holat – organizmning patogen va/yoki fizilogik omillar munosabati bilan paydo bo‘lgan va tibbiy yordam ko‘rsatilishiga muhtoj o‘zgarishlari.

sindrom – yagona patogenezga ega bir qator simptomlarning turg‘un yig‘indisi.

KA uchun dori vositasini ajratib turuvchi stent* (DQS)** – neointima hosil bo‘lishiga to‘sqinlik qiluvchi antiproliferativ modda ajratib turadigan va shu hisobiga qayta stenozlanishni sekinlashishiga yordam beruvchi stent.

Dalillarning aniqlik darajasi (DAD) – tibbiy aralashuv qo‘llanilishidan olingan samara haqiqiy ekanligiga ishonch darajasi.

Evropa kardiologlar jamiyati (EKJ)

tavsiyalarning ishonchlilik darajasi (TID) – aralashuv samarasining va aniq vaziyatda tavsiyalarga rioya qilishning ziyonga nisbatan ko‘proq foyda keltirishiga ishonchlilik hamda aniqlik darajasi [200].

Jarrohlik yo‘li bilan davolash – jarrohlik amaliyoti davomida to‘qimalarni ajratish yoki birlashtirish yo‘li bilan kasallikni davolash uslubi.

teri orqali koronar aralashuv (TOKA) – KAning stenozlangan qismida teri orqali zarur moslamalarni qo‘llash yordamida qon oqimini tiklash. Uslubga teri orqali ballonli angioplastika, koronar stentlash va kamroq tarqalgan boshqa usullar kiradi. Odatda, agar boshqa narsa ko‘rsatilmagan bo‘lsa, TOKA tushunchasi ostida koronar stentlash ko‘zda tutiladi.

2.2 YuIKning klinik tasnifnomasidan klinik amaliyotda foydalanish juda qulay.

Stenokardiya:

Turg‘in zo‘riqish stenokardiyasi (Kanada tasnifnomasi bo‘yicha funksional sinfini (I-IV) ko‘rsatgan holda.

Vazospastik stenokardiya.

Mikro-qon tomir stenokardiyasi.

Infarktdan keyingi o'choqli kardioskleroz (o'tkazilgan infarkt sanasini, lokaliza- siyasini, turini ko'rsatgan holda (EKJ, Amerika kardiologik kolleji, Amerika yurak assosiasiyasi va Butunjahon kardiologik federasiyasining birlashgan ishchi guruhi tomonidan tayyorlangan MIning universal ta'rifiga muvofiq).

Og'riqsiz miokard ishemiyasi.

Ishemik kardiomiopatiya.

2000 yilda O'zbekiston kardiologlarining IV s'ezdida YuIkning mavjud tasnifnomasiga qo'shimchalar kiritgan holda yangi tasnifnoma qabul qilindi.

O'zbekistonda qabul qilingan YuIK tasnifnomasi.

to'satdan koronar o'lim (yurakning birlamchi to'xtab qolishi)

Stenokardiya

Zo'riqish stenokardiyasi (FSni ko'rsatgan holda)

nostabil stenokardiya:

Ilk bor paydo bo'lgan.

Avj etuvchi zo'riqish stenokardiyasi.

Angiospastik stenokardiya.

Erta infarktdan keyingi stenokardiya.

Erta jarrohlik amaliyotidan keyingi stenokardiya.

Og'riqsiz miokard ishemiyasi.

Miokard infarkti:

Q tishchali – QMI.

Q tishchasiz – NQMI.

Infarktdan keyingi kardioskleroz.

Yurak ritmi buzilishi (shaklini ko'rsatgan holda).

Yurak etishmovchiligi (shaklini va bosqichini ko'rsatgan holda).

YuIKni statistik kodlashning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha izohlar:

Mikro-qon tomir va stabil stenokardiya uchun KXT-10 da shaxsiy kodlar ajratilmaganligi sababli, ular I20.8 kodga umumlashtirilgan.

O'lim statistikasini ishlab chiqishda I20 kodlari qo'llanilmaydi, ya'ni stenokardiyaning hech qaysi shakli o'limning birlamchi sababi sifatida qaralmaydi va o'limdan keyingi klinik va patologoanatomik diagnostikalarining «asosiy kasallik» rubrikasida qayd etilishi mumkin emas.

Rubrika I25.0 – aterosklerotik yurak-qon tomir kasalligi, ta'riflangan: kod noaniq shakllantirilgan diagnozga muvofiq keladi, amaliyotda qo'llash kerak emas.

Rubrika I25.1 – aterosklerotik yurak kasalligi: KA aterosklerozi (KA da rejali aralashuv bilan.

bog'liq tibbiy yordam ko'rsatishning sababi sifatida instrumental tarzda tasdiqlangan bo'lishi kerak); yurak ritmi buzilishlari YuIK guruhidan nozologik shakl sifatida (agar YuIK guruhidan boshqa nozologiyalar bo'lmasa, albatta, KA aterosklerozi tasdiqlanganda asosiy kasallik sifatida olib chiqiladi. YuIK guruhidan boshqa nozologiyalar, masalan,

infarktdan keyingi kardioskleroz mavjud bo'lgan taqdirda yurak ritmi buzilishini ularning asorati sifatida qaralishi maqsadga muvofiq).

Rubrika I25.2 – avval o'tkazilgan MI (infarktdan keyingi kardiosklerozdan – I25.8 farqlash lozim), Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (BJST) tomonidan faqat tasodifan retrospektiv aniqlangan va aniqlangan hamda bemor kuzatilayotgan vaqtda hech qanday klinik ko'rinishga ega bo'lmagan MI hollari uchun ko'zda tutilgan. Ushbu klinik vaziyat letal oqibatga olib kelishi mumkin emas, bundan tashqari, XKT-10 da o'lim statistikasini ishlab chiqishda I25.2 rubrikasini qo'llash to'g'ridan-to'g'ri taqiqlangan.

Rubrika I25.3 – Yurak anevrizmasi: yurakning surunkali anevrizmasi YuIK ning mustaqil nozologik shakli bo'lib hisoblanmaydi, balki infarktdan keyingi kardiosklerozning ko'rinishidir, shuning uchun klinik diaqnozning ta'riflanishini «infarktdan keyingi kardioskleroz» atamasidan boshlash lozim, lekin yurakning surunkali anevrizmasini diaqnozda ko'rsatish kerak, chunki uning mavjudligi to'g'ri shifrn tanlashni talab qiladi.

Rubrika I25.4 – KA anevrizmasi: agar ushbu rubrikada ko'rsatilgan patologik holatlar tibbiy

muolajalar asorati bo'lsa, ular asosiy kasallik/o'limning birlamchi sababi sifatida qaralishi mumkin emas, balki o'tkazilgan aralashuvning asorati sifatida olib chiqiladi. Agar ular tibbiy yordam bilan bog'liq bo'lmasa, ularni asosiy kasallik (jumladan, letal oqibat holatida – o'limning birlamchi sababi) sifatida qayd etish uchun hech qanday chegaralar yo'q.

Rubrika I25.5 – ishemik kardiomiopatiya Xkt-10 da saqlanib qolgan (2016 y. versiyasi). Bundan tashqari, XKT-11 loyahasida ham ushbu rubrika mavjud. shuningdek, XKT-10 ishemik kardiomiopatiyaning o'lim statistikasida qo'llanilishiga hech qanday cheklov qo'ymaydi.

Rubrika I25.6 – simptomsiz miokard ishemiyasi o'limning birlamchi sababi (o'limdan keyingi klinik va patologoanotomik diaqnozlarda asosiy kasallik) sifatida ko'rilishi mumkin emas. Letal oqibat holatida o'lim sababini tanlash o'limga olib keluvchi klinik ko'rinish bilan aniqlanadi.

Rubrika I25.8 – surunkali YuIKning boshqa shakllari: o'tkazilgan miokard infarkti I25.2 dan farqli (Rubrika I25.2 ga qarang) XKT-10 infarktdan keyingi kardiosklerozni shifrlash uchun (I25.8) o'lim oqibati sababi sifatida aniqlaydi; koronar shunt, transplantasiya qilingan yurak KA va avval stentlangan KA aterosklerozi, agar ushbu patologik holatlar rejali yuqori texnologik tibbiy yordam uchun sabab bo'lgan bo'lsa. Ushbu holatlarni o'limning birlamchi sababi (asosiy kasallik – o'limdan keyingi klinik/patologoanotomik diaqnozda) sifatida ko'rish maqsadga muvofiq, agar invaziv/jarrohlik aralashuv ushbu patologiya bo'yicha letal asoratlar rivojlanishiga olib kelgan bo'lsa.

Rubrika I20.9 – noaniq stenokardiya va rubrika I25.9 – noaniq surunkali YuIK: kodlar noaniq ta'riflangan diaqnozga muvofiq keladi, amaliyotda qo'llash kerak emas.

3. Usullar, yondashuvlar va tashxislash jarayonlari

YuIK diaqnozi shikoyatlar yig'indisi (stenokardiya klinikasi), anamnez ma'lumotlari (yurak-qon tomir), diaqnostik uslublar yordamida yashirin koronar etishmovchilik (ishemiya) aniqlanishi asosida qo'yiladi. Diaqnoz qo'yilgandan keyin stenozlovchi

koronar aterosklerozni va jarrohlik yo'li bilan davolashga ko'rsatmalarni aniqlash uchun koronarografiya (KAG) o'tkazish zarur.

3.1 Shikoyatlar va anamnez

Diagnostika bosqichida YuIKga gumon qilingan barcha bemorlarning shikoyatlari tahlili o'tkaziladi va anamnez yig'iladi. Zo'riqish stenokardiyasida eng ko'p shikoyat stabil YuIKning eng ko'p tarqalgan shakli sifatida ko'krakdagi og'riq hisoblanadi.

Stenokardiya klinikasini aniqlash maqsadida tibbiyot xodimi (vrach) YuIKga gumon qilingan bemorni ko'krak qafasidagi og'riq sindromi mavjudligi, uning tavsifi, paydo bo'lish tezlanishi va paydo bo'lishi hamda yo'qolishi sharoitlari to'g'risida so'raydi.

Jadval 3.

Stenokardiya shakllarining klinik tavsifnomasi

Stenokardiya turlari	Klinik ko'rinishi
Tipik (shubhasiz) zo'riqish stenokardiyasi:	tipik (shubhasiz) zo'riqish stenokardiyasining belgilari: ko'krak suyagi sohasida og'riq (yoki diskomfort), chap qo'lga, orqaga yoki pastki jag'ga, kamroq hollarda epigastral sohaga irradiasiya bo'lishi mumkin, davomiyligi 2 dan 5 (20 dan kam) daqiqa. og'riqning ekvivalent holatlari: hansirash, «og'irlik», «kuyish» hissi; yuqorida bayon qilingan og'riq jismoniy zo'riqmada yoki yaqqol ifodalangan ruhiy-emosional stress vaqtida paydo bo'ladi; yuqorida bayon etilgan og'riq jismoniy zo'riqma to'xtatilgandan keyin yoki nitrogliserin qabul qilgandan 1–3 daqiqadan so'ng o'tib ketadi. tipik (shubhasiz) stenokardiya diagnozini tasdiqlash uchun bemorda bir vaqtning o'zida yuqorida sanab o'tilgan barcha uchta belgi mavjud bo'lishi kerak. Jismoniy zo'riqmaga ekvivalent bo'lib arterial bosim (AB)ning krizli ko'tarilish bilan miokardga zo'riqma ortishi, shuningdek, katta miqdorda ovqat iste'mol qilish hisoblanadi.
Atipik stenokardiya	atipik stenokardiya diagnozi agar bemorda tipik stenokardiyaning yuqorida sanab o'tilgan uchta belgisidan har qanday ikkitasi mavjud bo'lsa qo'yiladi.
Ko'krak qafasidagi nostenokardik og'riqlar	ko'krak qafasidagi noanginoz (nostenokardik) og'riqlarning belgilari: og'riqlar navbatma-navbat ko'krak suyagining o'ng va chap tomonida lokallashadi; og'riqlar «nuqtali» xususiyatga ega bo'ladi; og'riqlar paydo bo'lgandan keyin 30 daqiqadan (bir necha soat yoki sutkagacha) ko'p vaqt davom etadi, og'riqlar doimiy, «sanchib turuvchi» bo'lishi mumkin; og'riqlar piyoda yurish yoki boshqa jismoniy zo'riqma bilan aloqador emas, biroq tana holatiga bog'liq bo'ladi: tana korpusi engashganda va yon tomonlarga burilganda, yotgan holatda («decubitus» stenokardiyasi – yotgan holatda venoz qaytishning ortishi va yurakka old

	<p>zo‘riqmaning oshishi hamda miokardning kislorodga bo‘lgan ehtiyojining ortishi natijasida paydo bo‘ladigan chin stenokardiya bundan istisno), tananing uzoq vaqt davomida noqulay holda bo‘lishida, chuqur nafas olganda nafas olish cho‘qqisida paydo bo‘ladi.</p> <p>og‘riqlar nitrogliserin qabul qilganda o‘tib ketmaydi; ko‘krak suyagini va/yoki ko‘krak qafasining qovurg‘alararo oraliqlarini palpasiya qilinganda og‘riqlar kuchayadi.</p>
Vazospastik stenokardiya	<p>vazospastik stenokardiyada ko‘krak qafasidagi og‘riq sindromining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib shu narsa hisoblanadiki, og‘riq xuruji odatda juda kuchli,</p> <p>«tipik» joyda – ko‘krak suyagi sohasida lokallashgan bo‘ladi. ko‘pincha bunday xurujlar kechasi va erta tongda, shuningdek, tananing ochiq qismlariga sovuq ta'sir qilgan vaqtda paydo bo‘ladi.</p>
Mikro-qon tomir stenokardiyasi	<p>Mikro-qon tomir stenokardiyasida ko‘krak qafasidagi og‘riq sindromining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, anginoz og‘riq sifat belgilari va lokalizatsiyasi bo‘yicha stenokardiya muvofiq keladi, lekin jismoniy zo‘riqmadan keyin bir qancha vaqt o‘tgandan so‘ng, shuningdek, emosional zo‘riqishdan keyin paydo bo‘ladi, tinch holat paydo bo‘lishi mumkin va organik nitratlar yordamida qiyin bartaraf etiladi.</p> <p>ko‘krak qafasidagi og‘riq sindromining mavjudligi stenokardiya munosabatida ehtiyotkorlikka chaqirishi lozim, keyin esa o‘xshash simptomatika beradigan boshqa kasalliklarni izlash zarur. shuni hisobga olish kerakki, har qanday genezga ega og‘riq (nevralgiyalar, gastralgiyalar, xolesistitdagi og‘riqlar va b.) mavjud stenokardiyaning provokatsiya qilishi va kuchaytirishi mumkin.</p> <p>So‘rov vaqtida zo‘riqish stenokardiyasi aniqlanganda uning ifodalanganligini baholash maqsadida ko‘tara oladigan jismoniy zo‘riqmaga ko‘ra funksional sinf (FS) ni (stenokardiyaning Kanada tasnifnomasiga muvofiq) aniqlab olish zarur.</p>

Kanada yurak-qon tomir jamiyatining tasnifnomasi hanuzgacha stabil stenokardiya gradasiyalari tizimi sifatida jismoniy faollik bilan bog‘liq simptomlar paydo bo‘ladigan chegarani miqdoriy aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Kanada kardiologik jamiyati tasnifnomasi bo‘yicha stenokardiyaning 4 ta funksional sinf (FS) farqlanadi

Jadval 4.

Stenokardiya FS tasnifnomasi

Fs I	Fs II	Fs III	FS IV
-------------	--------------	---------------	--------------

30–39	3%	5%	4%	3%	1%	1%	0%	3%
40–49	22%	10%	10%	6%	3%	2%	12%	3%
50–59	32%	13%	17%	6%	11%	3%	20%	9%
60–69	44%	16%	26%	11%	22%	6%	27%	14%
70+	52%	27%	34%	19%	24%	10%	32%	12%

izoh: * – guruhga faqat hansirashga yoki asosiy simptom sifatida hansirashga ega bemorlar kirgan; zo‘riqma sinamalarini o‘tkazish eng samarali bo‘lgan katakchalar to‘q yashil rang bilan ajratilgan (SOE >15%), bunda har yillik yurak-qon tomir o‘limi yoki o‘tkir MI xavfi $\geq 3\%$; och yashil rangdagi katakchalar YuIK SOE 5–15% ni anglatadi, bunda zo‘riqmali sinama o‘tkazish to‘g‘risida xavf modifikatorlarini aniqlash asosida YuIK mavjudligining umumiy klinik ehtimolini baholashdan keyin muhokama qilish mumkin.

sharhlar. SOE – bu bemorda YuIK mavjudligi ehtimolining oddiy ko‘rsatkichi, u og‘riq xususiyati, yoshi va jinsini baholashga asoslangan [6]. YuIKning SoE <5% qiymatida juda past hisoblanadi (har yillik yurak-qon tomir o‘limi yoki MI xavfi <1% ni tashkil qiladi). Bunday holda birlamchi tekshiruvdan keyin SOEni oshiruvchi omillar topilmagandan so‘ng YuIK diagnozi istisno qilinishi mumkin. YuIKning SOE >15% qiymati o‘rtamiyona hisoblanadi va nafaqat birlamchi tekshiruvni, balki YuIK diagnostikasining qo‘shimcha spesifik uslublarini o‘tkazishni talab qiladi. YuIKning SOE 5–15% qiymatlari, umuman olganda, yaxshi prognozni ta‘minlaydi (har yillik yurak-qon tomir o‘limi yoki MI xavfi <1% ni tashkil qiladi), lekin YuIK ehtimolini oshiruvchi qo‘shimcha klinik omillar yoki aniq simptomlar mavjudligida birlamchi tekshiruv o‘tkazilgandan keyin qo‘shimcha maxsus tekshiruvni bajarishni talab qilishi mumkin.

Stabil YuIkni diagnostika qilganda birlamchi tekshiruv spesifik hisoblanmaydi, biroq YuIK SOEni oshiruvchi omillarni aniqlashga imkon beradi va bir qator hollarda YuIK uchun xos bo‘lgan belgilarni, masalan, elektrokardiogramma (EKG)da chandiqli o‘zgarishlarni yoki exokardiografiya (ExoKG)da lokal qisqaruvchanlikning buzilishlarini topishga imkoniyat yaratadi.

3.3 Laborator-diagnostik tekshiruvlar

Eng muhim ko‘rsatkich bo‘lib qonning lipid spektri hisoblanadi. Qolgan qon va peshob tekshiruvlari YuIK prognozini yomonlashtiruvchi yondosh kasalliklar va sindromlar (YuE, QD, qalqonsimon bez disfunksiyasi, anemiya, eritremitiya, trombotoz, trombositopeniya, surunkali jigar yoki buyrak etishmovchiligi va b.) ni aniqlashga imkon beradi va medikamentoz terapiyani tanlashda ularni hisobga olishni talab etadi hamda zarurat tug‘ilganda bemorning jarrohlik yo‘li bilan davolanishiga yo‘llanma berilishiga sabab bo‘ladi.

Jadval 7.

Tavsiyalar	Sinf	Daraja	iqibos
YuIK bor yoki unga gumon qilingan barcha bemorlarga birlamchi murojaat qilganda yondosh kasalliklarni, shuningdek, stenokardiya paydo bo‘lishining ikkilamchi	I	B	https://scardio.ru/content/Guidelines/2020/Clinic_rekom_IB

xususiyatini istisno qilish uchun gemoglobinni, eritrositlar va leykositlar sonini aniqlash bilan birga qonning umumiy (klinik) tahlilini kengaytirilgan holda o'tkazish tavsiya etiladi			<u>S-unlocked.pdf?y sclid=ltmjvbnw 378201129</u>
YuIK bor yoki unga gumon qilingan barcha bemorlarga QDni aniqlash uchun skrining asoslari mavjud bo'lganda qondagi glikirlangan gemoglobin, och qoriga qondagi glyukoza miqdorini aniqlashdan boshlash tavsiya etiladi. Agar natijalar ishonchli bo'lmasa – qo'shimcha glyukozaga tolerantlik peroral sinamasini o'tkazish lozim	I	B	<u>https://academic.oup.com/eurheartj/article/44/39/4043/7238227?login=false</u>
YuIK bor yoki unga gumon qilingan barcha bemorlarga ba'zi dori vositalarini tayinlash, shuningdek, ularning dozalarini korreksiya qilish imkoniyatini aniqlash uchun qondagi kreatinin darajasini tekshirish va ko'ptokcha filtrasiyasi tezligi (KFT)ni* hisob- kitob yo'li bilan yoki kreatinin klirensini aniqlash orqali buyrak funksiyasi holatini baholash tavsiya etiladi	I	B	<u>https://academic.oup.com/eurheartj/article/44/39/4043/7238227?login=false</u>
YuIK bor yoki unga gumon qilingan barcha bemorlarga lipidlar almashinuvi buzilishlarini baholash maqsadida qonning biokimyoviy tahlilini o'tkazish, jumladan, Xoni aniqlash va zarurat tug'ilganda terapiyani korreksiya qilish uchun umumiy xolesterin (UXS) miqdorini, past zichlikdagi lipoproteidlar xolesterini (PZLP XS) va trigliseridlarni aniqlash tavsiya etiladi	I	C	<u>https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false</u>

***izox:** keksa bemorlarni tekshirishda bir qarashda, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, birga keladigan (komorbid, polimorbid bo'lgan) kasalliklarning tuzilishida o'xshashliklar aniqlanadi, ammo batafsilroq tahlil qilinganda, bunday qarama-qarshiliklar asoslangan va batafsil o'rganilganda bartaraf etilishi mumkinligi izoxlanadi.

Jadval 7.

Surunkali buyrak kasalligi (SBK) bosqichlari va klinik harakatlar rejasi

BBosqichlar	Ta'rifi	KFT (ml/min/ 1,73 m ²)	Harakatlar*
-------------	---------	--	-------------

1	normal yoki ortgan KFT bo'lgan buyraklar shikastlanishi	≥ 90	Diagnoz va davolash; yondosh kasalliklarni davolash; kasallik taraqqiy etishini sekinlashtirish; YuQtk xavfini pasaytirish
2	KFT biroz pasaygan buyraklar shikastlanishi	60–89	taraqqiy etish tezligini baholash
3A	KFT o'rtamiyona pasaygan buyraklar shikastlanishi	45–59	Asoratlarni tekshirish va davolash
3B	KFT yaqqol ifodalangan darajada pasaygan buyraklar shikastlanishi	30–44	
4	KFT og'ir darajada pasaygan buyraklar shikastlanishi	15–29	O'rnini bosuvchi terapiyaga tayyorgarlik
5	terminal buyrak etishmovchiligi	< 15 (yoki dializ)	O'rnini bosuvchi terapiya (uremiya mavjudligida)

Tavsiyalar	Sinf	Daraja	iqibos
YuIK bor yoki unga gumon qilingan barcha bemorlarga lipidlar almashinuvi buzilishlarini baholash maqsadida qonning biokimyoviy tahlilini o'tkazish, jumladan, Xoni aniqlash va zarurat tug'ilganda terapiyani korreksiya qilish uchun umumiy xolesterin (UXS) miqdorini, past zichlikdagi lipoproteidlarning xolesterini (PZLP XS) va trigliseridlarni aniqlash tavsiya etiladi	I	C	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false
Qalqonsimon bez patologiyasining klinik ko'rinishlar mavjudligida YuIK bor bemorlarga qalqonsimon bez kasalliklarini aniqlash maqsadida qalqonsimon bez funksiyasini baholash (qondagi tireotrop gormon darajasini, umumiy tiroksin (T4) miqdorini, erkin tiroksin (ET4) miqdorini, erkin triyodtironin (ET3), umumiy triyodtironin (T3) darajasini aniqlash) tavsiya etiladi, chunki ular yurak-qon tomir tizimi holatiga ta'sir etishi mumkin	I	C	https://scardio.ru/content/Guidelines/2020/Clinic_rekom_IBS-unlocked.pdf?yclid=ltmjvbn378201129
Stabil YuIK diagnozi qo'yilgan barcha bemorlarda takroriy tekshiruvlarda zarurat tug'ilganda terapiyani o'z vaqtida korreksiya qilish maqsadida har yili kengaytirilgan umumiy (klinik) qon tahlilini, biokimyoviy	I	C	https://scardio.ru/content/Guidelines/2020/Clinic_rekom_IBS-unlocked.pdf?ys

umumterapevtik tahlilini, lipidlar almashinuvi buzilishlarini baholash bo'yicha biokimyoviy tahlilini, qondagi kreatinin miqdori tahlilini va och qoringa glyukoza miqdori tahlilini nazorat sifatida o'tkazish tavsiya qilinadi			clid=ltmjvbn378201129
YuIK bor va bo'lmachalar fibrillyasiyasi (BF) bo'lgan barcha bemorlarda antikoagulyantlar tayinlash zaruratini hisobga olgan holda qondagi kreatinin miqdori asosida kokroft-Golt formulasi bo'yicha kreatinin klirensini aniqlash tavsiya etiladi	I	C	https://academic.oup.com/eurheartj/article/44/39/4043/7238227?login=false

***izox:** insonlarning yoshi keksaygani bilan tanadagi suyuqlik tarkibining o'ziga xos zichligi kamaishi kuzatiladi, bu fibroz bilan progressiv to'qimalarni almashtirilishi bilan namoyon bo'ladi, bu esa barcha to'qimalarning ishemik shikastlanish zonalarini ortib borilishi bilan ifodalanadi. Bu progressiv apoptoz va patologik nekroz tufayli ham sodir bo'ladi.

3.4 Instrumental diagnostik tekshiruvlar

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
YuIK gumon qilingan barcha bemorlarga tinch holatda ishemiya (jumladan, og'riqsiz miokard ishemiyasi) belgilarini, shuningdek, Q tishcha mavjudligi ehtimolini, yondosh yurak ritmi va o'tkazuvchanligi buzilishlarini aniqlash uchun tinch holatdagi 12-kanalli EKG ni qayd qilish, elektrokardiografik ma'lumotlarni ta'riflash va interpretasiya qilish tavsiya etiladi	I	C	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

Sharhlar: ko'krak qafasidagi og'riq xuruji paytidagi EKG tinch holatdagi EKG ga nisbatan ko'proq ahamiyatga egadir. Agar og'riq vaqtida EKGda o'zgarishlar bo'lmasa, bunday bemorlarda YuIK ehtimoli kamayadi, lekin baribir to'liq istisno qilinmaydi. og'riq xuruji vaqtida yoki undan keyin darhol o'tkazilgan EKGda o'zgarishlarning paydo bo'lishi YuIK ehtimolini ancha oshiradi. Ishemiyaning spesifik belgilari bo'lib bitta yoki undan ko'p EKG ushlanmalarida J nuqtadan ST segmentining 0,1 mV dan kam bo'lmagan chuqurlikdagi davomiyligi 0,06–0,08 s gorizontali yoki qiyshiq tushuvchi depressiyasi hisoblanadi. Vazospazmning spesifik belgilari bo'lib ikkita va undan ko'p ushlanmalarda ST segmentining kamida 0,1 mV ga tranzitor ko'tarilishi xizmat qiladi.

Exokardiografiya (ExoKG)-tadqiqoti

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
tinch holatdagi doppler rejimlarini qo'llagan holda transtorakal ExoKG o'tkazish YuIK ga gumon qilingan bemorlarga:	I	B	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137

ko'krak qafasidagi og'riqning boshqa sabablarini istisno qilish uchun; ChQning lokal qisqaruvchanligi buzilishlari (LQB)ni aniqlash uchun; ChQ otish fraksiyasi (OF) ni o'lchash uchun; ChQ diastolik funksiyasini baholash uchun; yurak klapan apparati patologiyasini aniqlash uchun tavsiya etilgan			?login=false
--	--	--	------------------------------

Sharhlar: tinch holatdagi ExoKGni bajarishning asosiy maqsadi – ChQ sistolik va diastolik funksiyasini baholashdan, shuningdek, ko'krak qafasidagi og'riqning boshqa sabablarini, jumla- dan, klapan shikastlanishi, perikardit, miokardit, chiquvchi aorta anevrizmalari, gipertrofik kardiomiopatiyalar va boshqa kasalliklarni istisno qilishdan iborat. O'tkazilgan o'tkir MIning ExoKG belgilari bo'lib muvofiq arteriyaning qon bilan ta'minlanish sohasida LQB hisoblanadi. YuIK yoki mikro-qon tomir disfunktsiyasining erta belgisi ChQ diastolik funksiyasining buzilishlari bo'lishi mumkin.

Qari va keksa yoshlilarda ExoKGda odatda chap qorincha miokardining disfunktsiyasi (sistolik va diastolik) aniqlanadi, bu jarayon dasturiy apoptoz yoki patologik sklerozning progressiv rivojlanishi tufayli o'zini tipik stenokardiya va/yoki (atipik, spontan, mikrovaskulyar, og'riqsiz va x.k.) sifatida namoyon bo'lishi mumkin, shu qatorda o'tkir miokard infarktidan so'ngi kardioskleroz (ISKS) natijasi, yoki ishemik kardiomiopatiya tufayli progressiv rivojlanuvchi surunkali yurak etishmovchiligining oqibati bo'lishi bilan ifodalanadi.

Uyqu arteriyalarining ultratovush tekshiruvlari

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
YuIKga gumon qilingan va avval har qanday lokalizatsiyadagi ateroskleroz verifikatsiya qilinmagan barcha bemorlarga ASBni aniqlash uchun uyqu arteriyalarining ekstrakranial bo'limlarini dupleks skanerlash tavsiya etiladi	Ila	C	https://scardio.ru/content/Guidelines/2020/Clinic_rekom_IBS-unlocked.pdf?ysclid=ltmjvbn378201129

Sharhlar: ASBning mezoni bo'lib intima-media kompleksi (IMK)ning $\geq 1,5$ mm, 50% ga yoki uyqu arteriyasining yaqin joylashgan qismlari qalinligidan 0,5 mm ga ko'p lokal qalinlashuvi hisoblanadi [19, 20]. YuIKga gumon qilingan bemorlarda uyqu arteriyalarida ateroskleroz belgilari mavjudligi YuQTA ning yuqori xavfi bilan bog'liq bo'ladi va statinlar tayinlanishiga asos bo'lib hisoblanadi.

Ko'krak qafasi rentgenografiyasi

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
YuIK uchun notipik simptomlari bo'lgan bemorlarda ko'krak qafasi a'zolarining mo'ljallangan rentgenografiyasi yurak va yirik qon tomirlarning boshqa kasalliklari uchun, shuningdek, yurakdan tashqari patologiyasi (mediastinum)ning boshqa a'zolari, o'pka, plevra patologiyasini) istisno qilish uchun tavsiya etiladi	I	C	https://academic.oup.com/eurheartj/article/44/39/4043/7238227?login=false

EKGni sutkalik (Xolter) monitorlash

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
1-qator preparatlari samaradorligi etarli bo'lmaganda stabil stenokardiya bemorlarga ABga, YuQTga va stenokardiya xurujlari profilaktikasi hamda I FSga erishish profilaktikasiga ko'ra davolashga 2-qator preparatlaridan birini (organik nitratlar yoki ivabradin**, yoki trimetazidin, ranolazin, yoki nikorandil) qo'shish tavsiya etiladi.	IIa	B	https://scardio.ru/content/Guidelines/2020/Clinic_recommendations_IBS-unlocked.pdf?ysclid=ltmjvbn378201129
Sinus ritmli, OF $\leq 35\%$ va tinch holatdagi YuQT >70 zarb/daqiqqa bo'lgan, BAB, AO'F-i va mineralkortikoid reseptorlar antagonistlarini qabul qilishiga qaramay, stenokardiya saqlangan bemorlarga o'lim xavfini pasaytirish uchun ivabradin**	IIa	B	https://scardio.ru/content/Guidelines/2020/Clinic_recommendations_IBS-unlocked.pdf?ysclid=ltmjvbn378201129

tayinlash tavsiya etiladi			201129
BAB yoki KKNGPB (verapamil**, diltiazem) tayinlanishiga qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lganda stabil stenokardiyali bemorlarga YuQT >80 bo'lganda va sinus ritmda ivabradin** tayinlash tavsiya qilinadi	IIa	C	https://scardio.ru/content/Guidelines/2020/Clinic_rekom_IBS-unlocked.pdf?ysclid=ltmjvbn378 201129

4.2.1 Yuqta profilaktikasiga qaratilgan davolash antiagregant terapiya

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Yurak qon tomir asoratlarining oldini olish maqsadida barcha bemorlarga shu jumladan keksa yoshdagi bemorlarga antiagregantlar tavsiya etiladi bulardan asetilsalisil kislotasi (ASK)** 75-100 mg/sut miqdorida	I	A	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false
Stabil YuIK mavjud bo'lgan barcha, shu jumladan keksa yoshdagi bemorlarga xam ASK**ga qarshi ko'rsatmalar mavjudligida yurak qon tomir asoratlarining oldini olish maqsadida trombositlar agregasiyasini alternativ ingibitori klopidogrel** 75 mg/sut miqdorida tavsiya etiladi	I	B	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

Sharhlar: MI, insult va yurak-qon tomir o'limining yig'indi tezlanishi xavfini pasaytirish munosabatida klopidogrel** (75 mg)ning ASK** (325 mg/sut) oldida afzalligi asosan periferik aterosklerozli va o'qtin-o'qtin oqsoqlik bo'lgan bemorlar hisobiga ko'rsatilgan. trombositlar agregasiyasi boshqa ingibitorlari (prasugrel va tikagrelor**)ning stabil YuIK bor bemorlarda ASK** yoki klopidogrel**dan afzalliklarini namoyish qilgan ma'lumotlar yo'q.

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Ishemik hodisalarning yuqori xavfiga ega va qon ketishning yuqori xavfi bo'lmagan stabil YuIK bor bemorlarda ASK**ga ikkinchi trombositlar agregasiyasi ingibitorini qo'shishni ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Bunda ushbu terapiyaning davom ettirilishi foydasi va xavfining nisbati muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishi lozim	IIa	A	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false
Ishemik hodisalarning o'rtacha xavfiga	IIb	A	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

<p>ega va qon ketishning yuqori xavfi bo‘lmagan** stabil YuIK bor bemorlarda ASK**ga ikkinchi trombositlar agregasiyasi ingibitorini qo‘shishni ko‘rib chiqish tavsiya etiladi. Bunda ushbu terapiyaning davom ettirilishi foydasi va xavfining nisbati muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqilishi lozim</p>			<p>oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false</p>
---	--	--	---

Sharhlar: yuqori ishemik xavf deganda bemorda koronar arteriyalar (KA) ning ko‘p qon tomirli shikastlanishi va quyidagi belgilardan kamida bittasi: medikamentlar qabul qilinishini talab etuvchi qandli diabet (QD), o‘tkazilgan miokard infarkti (MI), periferik arteriyalar ateroskle- rozi, hisoblab chiqarilgan KFT (hkFT) 15–59 ml/min/1,73 m² bo‘lgan surunkali buyrak kasalligi (SBK) mavjud bo‘lishi nazarda tutiladi.

O‘rtacha ishemik xavf deganda bemorda quyidagi belgilardan kamida bittasi: KA ning ko‘p qon tomirli shikastlanishi, davolashni talab etuvchi QD, qaytalangan MI, periferik arteriyalar kasalliklari, surunkali YuE yoki hkFT 15–59 ml/min/1,73 m² bo‘lgan surunkali buyrak kasalligi (SBK) mavjud bo‘lishi nazarda tutiladi.

Qon ketishning yuqori xavfi deganda bemorda miya qutisi ichi qon ketishi, anamnezda ishemik insult yoki boshqa bir miya qutisi ichi patologiyasi, oshqozon-ichak trakti (OIT) dan yaqin orada qon ketishi yoki OIT dan qon yo‘qotish yoki OITning qon ketish yuqori xavfi bilan shartlangan boshqa kasalligi sababli anemiya, jigar etishmovchiligi, gemorragik diatez, keksa yosh va «mo‘rtlik» sin- dromi, dializni talab etuvchi yoki hkFT 15–59 ml/min/1,73 m² bo‘lgan surunkali buyrak kasalligi (SBK) mavjud bo‘lishi nazarda tutiladi.

ASK bilan terapiyani ikkinchi antitrombotik preparat bilan kuchaytirishning quyidagi variantlari:**

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
MI o‘tkazgan va trombositlar agregasiya ingibitorlari bilan ikkilama terapiyaning birinchi yilida qon ketishlar bo‘lmagan bemorlarda aterotrombotik yurak-qon tomir hodisalari rivojlanishi profilaktikasi uchun ASK** ni tikagrelor**ning kamaytirilgan dozasi (60 mg 2 marta/sut) bilan birgalikda 36 oygacha davom ettirish imkoniyatini ko‘rib chiqish tavsiya etiladi	IIa	B	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false
Stabil YuIK bor, trombotik asoratlari xavfi yuqori bo‘lgan va qon ketishlar xavfi yuqori bo‘lmagan bemorlarda aterotrombotik yurak-qon tomir hodisalari	IIa	B	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

rivojlanishi profilaktikasi uchun ASK** ni 75–100 mg dozada rivaroksaban** (2,5 mg 2 marta/sut doza- da) bilan birga uzoq muddat qo‘llash imkoniyatini ko‘rib chiqish tavsiya etiladi			login=false
---	--	--	-----------------------------

Sharhlar: Rivaroksaban** – Xa omili ingibitori 2,5 mg 2 marta/sut dozada («qon tomir» dozasi deb ataladi) plaseboga nisbatan O‘KSdan keyin asosan ASK** va klopidogrel** qabul qilgan va ahvoli stabillashgan bemorlarda qon ketishlar tezlanishini ko‘paytirishiga qaramay, MI, insult va yurak-qon tomir sabablaridan bo‘lgan o‘lim kabi hodisalar yig‘indisini kamaytiradi.

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
MI o‘tkazgan va birinchi yil davomida qon ketishlar kuzatilmagan stabil YuIK bor bemorlarda YuQTA profilaktikasi uchun trombositlar agregasiyasi ingibitori (ASK** 75–100 mg va klopidogrel** 75 mg) bilan ikkalama terapiyani uzoqroq muddatga cho‘zish im- koniyatini ko‘rib chiqish tavsiya etiladi	Ila	B	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false
MI o‘tkazgan va TOKA bajarilgan stabil YuIK bor bemorlarda YuQTA profilaktikasi uchun ASK** (75–100 mg/sut) va prasugrel 10 mg/sut dozada (vazni 60 kg dan kam yoki yoshi 75 dan katta bo‘lganda 5 mg) bilan terapiyani bir yildan ko‘p muddatga davom ettirish imkoniyatini ko‘rib chiqish tavsiya etiladi	Ila	B	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

Stabil stenokardiyali va sinus ritmli bemorlarda rejali tokadan keyin trombositlar agregasiyasi ingibitorlari bilan davolash

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Stabil stenokardiyali bemorlarga rejali TOKAdan keyin YuQTA profilaktikasi uchun ASKni sutkasiga 75–100 mg dozada qabul qilishni davom ettirish tavsiya qilinadi	I	A	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

<p>Stabil stenokardiyali bemorlarga rejali TOKA dan keyin KA uchun oʻrnatilgan stentning turidan qat'i nazar, stentlashdan keyin 6 oy davomida ASk ga klopidogrelni qoʻllab turuvchi 75 mg/sut dozada qoʻshish tavsiya qilinadi (qoʻllab turuvchi doza 5 kundan kam qabul qilingan holda klopidogrelning 600 mg zoʻriqmal dozasini qoʻshish tavsiya qilinadi). Hayotga xavf soluvchi qon ketishi yoki yuqori xavfi paydo boʻlgan vaziyatda klopidogrelni qabul qilish muddati 3 oygacha, qon ketishning juda yuqori xavfi paydo boʻlganda esa 1 oygacha qisqartirilishi mumkin</p>	I	A	<p>https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false</p>
--	---	---	--

Sharhlar: rejali stentlash oʻtkazganda asoratlarning yuqori xavfi (koronar arteriyalar uchun stentning nooptimal joylashuvi, koronar arteriyalar uchun stentning trombozi xavfini oshiruvchi tokAning boshqa asoratlari, chap KA oʻzagidagi TOKA yoki KAni koʻplab stentlash, shuningdek, AKShni koʻtara olmaslik) bilan birga kuzatilgan alohida hollarda hech boʻlmaganda YuQTA profilaktikasi uchun terapiyaning boshlangʻich bosqichlarida antiagregantlar sifatida trombositlar agregasiyasining boshqa ingibitorlari: prasugrel yoki tikagrelorni qoʻllash imkoniyatini koʻrib chiqish tavsiya etiladi [1].

Stabil YuIK va BF bor bemorlarda trombositlar agregasiyasi ingibitorlari bilan antitrombotik terapiya

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
<p>Antitrombotik vositalar bilan terapiyaning boshida k vitamini antagonistlariga (KVA) nisbatan, tayinlanishiga qarshi koʻrsatmalar boʻlmasa, toʻgʻri oral antikoagulyantlar (TOAK) (trombinning toʻgʻri ingibitorlari – dabigatran eteksilat) yoki Xa omili toʻgʻri ingibitorlari (apiksaban, rivaroksaban) tayinlanishi afzalroqdir</p>	I	A	<p>https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false</p>
<p>Stabil YuIK va BF bor barcha bemorlarga (erkaklar uchun CHA2DS2-VASc shkalasi boʻyicha ballar yigʻindisi ≥ 2; ayollar uchun CHA2DS2-VASc shkalasi boʻyicha ballar yigʻindisi ≥ 3)</p>	I	A	<p>https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false</p>

tromboembolik asoratlar (TEA) profilaktikasi uchun xalqaro me'yorlash-tirilgan nisbat (XMN)ni target therapeutic range (TTR)>70%) chegarasida qo'llab turish imkoniyati sharti bilan antitromboti vositalar (asosan, TOAK – trombinning to'g'ri ingibitorlari yoki Xa omilining to'g'ri ingibitorlari) yoki KVA bilan uzoq muddatli terapiya tavsiya etiladi			
Stabil YuIK va BF bor barcha bemorlarga (erkaklar uchun CHA2DS2-VASc shkalasi bo'yicha ballar yig'indisi ≥ 1 ; ayollar uchun CHA2DS2-VASc shkalasi bo'yicha ballar yig'indisi ≥ 2) tromboembolik asoratlar (TEA) profilaktikasi uchun xalqaro me'yorlash-tirilgan nisbat (XMN)ni target therapeutic range (TTR)>70%) chegarasida qo'llab turish imkoniyati sharti bilan antitrombotik vositalar (asosan TOAK – trombinning to'g'ri ingibitorlari yoki Xa omilining to'g'ri ingibitorlari) yoki KVA bilan uzoq muddatli terapiya zaruratini ko'rib chiqish tavsiya etiladi	IIa	B	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

Sharhlar: yurak klapanlari shikastlanishi bilan bog'liq bo'lmagan BF bor barcha bemorlarga TEA: ishemik insult va tizimli tromboemboliyalalar xavfini baholash uchun CHA2DS2-VASc shkalasini qo'llash tavsiya etiladi.

Jadval 10.

BF bor bemorlarda insult va tizimli emboliyalalar Xo va ularning ballar ko'rishidagi ahamiyati (CHA2DS2-VASc shkalasi)

Xavf omillari 1	ballar
«C» Surunkali yurak etishmovchiligi/ chap qorincha disfunktsiyasi	1
«H» Arterial gipertoniya	1
«A» Yoshi ≥ 75	2
«D» Diabet	1
«S» Ishemik insult/tranzitor ishemik ataka/anamnezda tizimli emboliyalalar	2
«VASc» Qon tomir kasalligi (anamnezda miokard infarkti, oyoqlar1 periferik arteriyalari aterosklerozi, aorta ateroskleroti blyashka)	1
Yoshi 65–74	1
Ayol jinsi	1

Qon ketishlar xavfini baholash uchun bir nechta shkalalarni qo'llash taklif qilingan, eng ko'p qo'llaniladigan shkala HAS-BLED.

Jadval 11.

Qon ketishlar xavfini baholash shkalasi HAS-BLEED

Xarfi*	klirik xarakteristika	ballar soni
H	Gipertoniya	1
A	Jigar yoki buyrak funksiyasi buzilishi (1 balldan)	1 yoki 2
S	Insult	1
B	Qon ketish	1
L	Labil XMn	1
E	Yoshi >65	1
D	Dorilar yoki alkogol (1 balldan)	1 yoki 2

izoh: * – ingliz tilidagi nomlarning birinchi harflari: «n» – sistolik AB >160 mm sim.ust.; «A» – jigar yoki buyrak funksiyasining buzilishi: dializ, buyrak transplantasiyasi yoki qon zardobidagi kreatinin ≥ 200 mmol/l; jigarning surunkali kasalligi (masalan, sirroz) yoki jigarning jiddiy shikastlanganligi biokimyoviy belgilar (masalan, bilirubin darajasi normaning yuqori chegarasidan kamida 2 martaga ortishi AST/ALT/ishqoriy fosfataza darajasi normaning yuqori chegarasidan 3 martadan ko'pga ortishi bilan birga va b.); «S» – anamnezda insult; «V» – anamnezda qon ketish va/yoki qon ketishga moyillik, masalan, gemorragik diatez, anemiya va b.; «L» – nostabil/yuqori XMn yoki XMn o'lchashlarning 60% dan kami maqsad qilingan diapazon chegarasida, «e» – yoshi >65; «D» – dorilar (antitrombositar, nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalar)/alkogol.

HAS-BLED shkalasi bo'yicha ballar yig'indisi ≥ 3 bo'lishi qon ketishlarning yuqori xavfini ko'rsatadi. shunga qaramay, qon ketishlarning hisoblab chiqarilgan yuqori xavfi anitkoagulyantlar tayinlanishiga yagona cheklov sababi bo'lishi kerak emas. Birinchi navbatda, bemorni tekshiruvdan o'tkazish kerak, bunda qon ketishlarning potensial manbalarini aniqlanadi, modifikasiyalanadigan XO ni korreksiya qilish, modifikasiyalanmaydigan Xo mavjudligida esa eng xavfsiz antikoga-ulyantni tanlash lozim.

Jadval 11.

4.2.2 Antikoagulyant qabul qiluvchi bF bor bemorlarda qon ketishlar xavfi omillari

Modifikasiyalanadigan XO
Arterial gipertoniya (ayniqsa, agar SAB >160 mm sim.ust. bo'lsa)
Labil XMn yoki XMn maqsad qilingan diapazonda bo'lish vaqti 60% dan kam (kVA qabul qiluvchilar uchun)
Qon ketishi xavfini oshiruvchi preparatlarni (antitrombositar yoki nYaQV) qo'shimcha qabul qilish
Alkogolni iste'mol qilish (haftasiga ≥ 8 porsiya) (porsiyalar miqdori = ichimlikning litrdagi hajmi, uning kuchi va 0,789 ga teng solishtirma og'irligi ko'paytmasi)
Qisman modifikasiyalanadigan XO
Anemiya
Buyraklar funksiyasi buzilishi
Jigar funksiyasi buzilishi

trombositlar sonining pasayishi yoki ular funksiyasining buzilishi
Modifikasiyalanmaydigan XO
Yoshi (>65 yosh), (≥75 yosh)*
Anamnezda katta qon ketish
Anamnezda insult
Dializni yoki buyrak transplantasiyasini talab etuvchi buyrak patologiyasi
Jigar sirrozi
Yomon sifatli oʻsmalar
Genetik omillar
Biomarkerlar – qon ketishlar XO
Yuqori sezgirlikka ega troponin
Oʻsish va differensirovka omili 15
Qon zardobidagi kreatinin darajasi/kreatinin klirensining hisoblab chiqarilgan qiymati

Qisqartmalar: KVA – K vitamini antagonistlari, XMN – xalqaro me'yorlashtirilgan nisbat, NYaQV – nosteroid yalligʻlanishga qarshi vositalar, SAB – sistolik arterial bosim, XO – xavf omillari.

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Stabil YuIK va BF bor hamda anamnezda MI oʻtkazgan va takroriy ishemik hodisalar xavfi yuqori boʻlgan, hayotga xavf soluvchi qon ketishlarning yuqori xavfiga ega boʻlmagan bemorlarda YuQTA profilaktikasi maqsadida peroral qabul qilish uchun antitrombotik vositaga sutkalik 75–100 mg dozadagi ASK yoki sutkalik 75 mg dozada klopidogrel qoʻshish imkoniyatini koʻrib chiqish tavsiya etiladi	I ib	B	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

Sharhlar: qon ketishning yuqori xavfi deganda bemorda anamnezda miya qutisi ichi qon ketishlari, ishemik insult yoki miya qutisi ichining boshqa patologiyalari, yaqin orada OITdan qon ketishi yoki OITdan qon yoʻqotish tufayli kelib chiqqan anemiya, qon ketishning yuqori xavfi bilan shartlangan oltning boshqa patologiyasi, buyrak etishmovchiligi, gemorragik diatez, keksa yosh va «moʻrtlik» sindromi, dializ talab etuvchi yoki hkFT <15 ml/min/1,73 m² boʻlgan SBK mavjudligi tushuniladi.

Stabil YuIK va BF bor yoki antitrombotik vositalar qabul qilishga boshqa koʻrsatmalari boʻlgan bemorlarda rejali tokadan keyin antitrombotik terapiya

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
ASK va klopidogrelni TOKA vaqtida (yoki KAG oʻtkazgandan keyin TOKA bajarilishi oydin boʻlgan vatqda) KA uchun stentlarning erta trombozini	I	C	https://www.escardio.org/Guidelines/Clinical-Practice-

profilaktika qilish uchun barcha bemorlarga tayinlash tavsiya etiladi			<u>Guidelines/ESC-EACTS-Guidelines-in-Myocardial-Revascularisation-Guidelines-for</u>
BF bor bemorlarga qarshi ko'rsatmalar bo'lmasa, tromboembolik asoratlarning, jumladan, insultning uzoq muddatli profilaktikasi uchun KVA emas TOAK (Xa omilining to'g'ri ingibitorlari – apiksaban 5 mg sutkada 2 mahal dozada, rivaroksaban 20 mg sutkada bir mahal dozada yoki trombinning	I	A	<u>https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false</u>

Sharhlar: har bir TOKAning dozasini BFda ko'rsatmalarga muvofiq ravishda tanlash lozim. BF bor va TOKA o'tkazilgan bemorlarda rivaroksabanni o'rganish bo'yicha PIONEER AF-PCI tadqiqotida buyrak funksiyasi buzilishi o'rtacha darajada (kreatinin klirensi 30–49 ml/min) bo'lgan bemorlar uchun 15 mg × 1 mahal/sut yoki 10 mg × 1 mahal/sut doza qo'llanilgan.

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Bemorda KA uchun stentning trombozi xavfidan va insult xavfidan ustun turadigan qon ketishlarning yuqori xavfi mavjud bo'lganda boshqa antikoagulyantlarga nisbatan rivaroksabanning 15 mg/sut dozasini yoki dabigatran etaksilat** ning 110 mg × 2 mahal/ sut dozasini qo'llash imkoniyatini afzal ko'rish tavsiya etiladi.	Ila	B	<u>https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false</u>

Sharhlar: qon ketishning yuqori xavfi deganda bemorda anamnezda miya qutisi ichi qon ketishlari, ishemik insult yoki miya qutisi ichining boshqa patologiyalari, yaqin orada OItan qon ketishi yoki OItan qon yo'qotish tufayli kelib chiqqan anemiya, qon ketishning yuqori xavfi bilan shartlangan OItning boshqa patologiyasi, buyrak etishmovchiligi, gemorragik diatez, keksa yosh va «mo'rtlik» sindromi, dializ talab etuvchi yoki hkFT <15 ml/min/1,73 m² bo'lgan SBK mavjudligi tushuniladi.

KA uchun stentning trombozi xavfi deganda trombozning o'zidan xavf va trombozdan bo'lgan o'lim xavfi tushuniladi. Bu xavflar quyida sanab o'tilgan anatomik, muolaja va klinik omillar bilan aniqlanadi: ChKA o'zagida yoki OPTA proksimal qismidagi TOKA, oxirgi faoliyat ko'rsatuvchi KA dagi TOKA, KA uchun stentning nooptimal joylashuvi, KA

uchun 60 mm dan uzun stentlarning oʻrnatilishi, KA uchun ikkita stentni implantasiya qilish bilan oʻtkazilgan stentlash, surunkali okklyuziyalarni davolash, adekvat antitrombotik terapiyaga qaramay, anamnezda KA uchun stent trombozi, QD, SBK. Insult xavfi har bir bemor uchun alohida CHA2DS2-VASc shkalasi boʻyicha toʻplangan ballar soniga muvofiq aniqlanadi.

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Asoratlanmagan TOKA hoida (KA uchun oʻrnatilgan stentning turidan qat'i nazar) tromboz xavfi past sharoitida KA uchun stent trombozi xavfidan qon ketish xavfi yuqori boʻlganida uchlama antitrombotik terapiya (UAT) (ASK+ klopidoqrel+ KVA) tarkibidagi ASK bilan davolash muddatini bir haftagacha qisqartirish imkoniyatini koʻrib chiqish tavsiya etiladi	Ila	B	https://www.escardio.org/Guidelines/Clinical-Practice-Guidelines/ESC-EACTS-Guidelines-in-Myocardial-Revascularisation-Guidelines-for
KA uchun stent trombozi xavfi qon ketish xavfidan ustun boʻlgan hollarda UAT ni (ASK+ klopidoqrel+ KVA) 1–6 oygacha uzaytirish imkoniyatini koʻrib chiqish tavsiya etiladi	Ila	C	https://www.escardio.org/Guidelines/Clinical-Practice-Guidelines/ESC-EACTS-Guidelines-in-Myocardial-Revascularisation-Guidelines-for

Uchlama antitrombotik terapiya (UAT) davomiyligi 1 oydan 6 oygacha boʻlishi mumkin, minimalmuddati esa gospitalizasiya davri bilan cheklanishi va bemorning stasionardan chiqishi bilanoq ikkilama antitrombositar terapiya (TOKAning toʻliq dozasi va klopidoqrel) tayinlanishi mumkin. UAT tayinlanishini uzaytirishga olib keladigan omillar boʻlib KA uchun oʻzidan dori vositasini ajaratadigan 1-avlod stentlarning qoʻllanilishi va trombotik asoratlar (ChKA oʻzagini yoki OPTA proksimal segmentini stentlash, bifurkasion stentlash, anamnezda MI yoki KA uchun stentning trombozi, SYNTAX shkalasi boʻyicha yuqori ball kabi) XO ning mavjudligi hisoblanadi. Antitrombotik terapiya muddatlarini qisqartirish zarurligini qon ketishlar yuqori xavfining mavjudligi va past aterotrombotik xavf (REACH yoki SYNTAX shkalalaridan foydalangan holda) koʻrsatadi. koʻp komponentli antitrombotik terapiyaning zarur boʻlgan davomiyligi bemorning kasallik tarixi koʻchirmasi epikrizida aniq koʻrsatilgan boʻlishi kerak.

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
KVAni ASK va/yoki klopidogrel bilan kombinatsiyada tayinlashga ko'rsatma bilan birga XMN ni maqsad qilingan 2,0 dan 2,5 gacha diapazondagi qiymatda, TTR ko'rsatkichini esa 70% dan yuqori darajada qo'llab turish tavsiya etiladi [77–	Ila	B	https://www.escardio.org/Guidelines/Clinical-Practice-Guidelines/ESC-EACTS-Guidelines-in-Myocardial-Revascularisation-Guidelines-for
KA uchun stent trombozining (KA uchun o'rnatilgan stent turidan qat'i nazar) o'rtacha yoki yuqori xavfi bo'lgan bemorlarda peroral qabul qilish uchun ASK, klopidogrel va KVA bilan UATga alternativ sifatida tikagrelor/ prasugrel antitrombotik vositasi bilan ikkilama terapiya imkoniyatini ko'zda tutish tavsiya etiladi	Iib	C	https://www.escardio.org/Guidelines/Clinical-Practice-Guidelines/ESC-EACTS-Guidelines-in-Myocardial-Revascularisation-Guidelines-for

Sharhlar: tikagrelor va prasugrelning klopidogrelga nisbatan kuchliroq antitrombotik preparatlar va qon ketishlar munosabatidagi xavfi yuqoriroq vositalar sifatida **UAT tarkibida qo'llash tavsiya etilmaydi.**

KA uchun stent trombozi xavfi deganda trombozning o'zidan xavf va trombozdan bo'lgan o'lim xavfi tushuniladi. Bu xavflar quyida sanab o'tilgan anatomik, muolaja va klinik omillar bilan aniqlanadi: ChKA o'zagida yoki OPTA proksimal qismidagi TOKA, oxirgi faoliyat ko'rsatuvchi KAdagi TOKA, KA uchun stentning nooptimal joylashuvi, KA uchun 60 mm dan uzun stentlarning o'rnatilishi, KA uchun ikkita stentni implantatsiya qilish bilan o'tkazilgan stentlash, surunkali okklyuziyalarni davolash, adekvat antitrombotik terapiyaga qaramay, anamnezda KA uchun stent trombozi, QD, SBK.

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Stabil YuIK bor, OItidan qon ketish xavfi yuqori bo'lgan yoki anamnezida OItidan qon ketishi mavjud, ASK yoki bir nechta antitrombotik vositalar kombinatsiyasini qabul qiluvchi bemorlar oshqozon shilliq qavatini himoya qilish va oshqozon-ichak qon ketishlarining profilaktikasi uchun	I	A	https://www.escardio.org/Guidelines/Clinical-Practice-Guidelines/ESC-EACTS-Guidelines-in-

protonli pompa ingibitorlarini qo'llash tavsiya etiladi (ko'rsatma bo'yicha – nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar qabul qilinishi bilan bog'liq oshqozon va o'n ikki barmoqli ichakning eroziv-yara shikastlanishlarini profilaktika qilish)			Myocardial- Revascularisation-Guidelines-for
---	--	--	--

Sharhlar: protonli pompa ingibitorlarini qo'llash UAT olayotgan barcha bemorlarga, shuningdek, oshqozon-ichak qon ketishlari xavfi yuqori bo'lgan bemorlarga (oshqozon yarasi kasalligi yoki anamnezda oshqozon-ichakdan qon ketishi, nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalarni yoki kortikosteroidlarni surunkali qo'llash, quyidagi belgilardan: yoshi ≥ 65 , dispepsiya, oshqozon-qizilo'ngach reflyuksiya, Helicobacter Pylori infeksiyasini yuqtirganlik, alkogolni surunkali suiiste'mol qilishdan kamida ikkitasi mavjudligi) tavsiya qilinadi (ko'rsatma bo'yicha – nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar qabul qilinishi bilan bog'liq oshqozon va o'n ikki barmoqli ichakning eroziv-yara shikastlanishlarini profilaktika qilish). klopidoqrelning antitrombotik samaradorligi kuchsizlanishi imkoniyati uning omeprazol yoki ezomeprazol bilan birgalikda (lekin pantoprazol yoki rabeprazol bilan emas) qo'llanilishida namoyish qilindi. Ushbu dorilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir davolashning klinik natijalariga noxush samara ko'rsatishi to'g'risida dalillar yo'q.

4.2.3 Gipolipidemik terapiya

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Surunkali YuIK bor barcha bemorlar juda yuqori xavf toifasiga kiradi, shuning uchun YuQTA profilaktikasi uchun ularning hammasiga sog'lom hayot tarzi bo'yicha tadbirlarni va optimal medikamentoz terapiyani qo'llagan holda dislipidemiyaning koreksiya qilish tavsiya etiladi	I	A	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/1/111/5556353?login=false
YuQTA profilaktikasi uchun stabil YuIK bor bemorlarning barchasiga PZLP XSning maqsad qilingan darajasi ($<1,4$ mmol/l) gacha erishish va uning dastlabki miqdoridan 50% ga pasayishi uchun GMG-KoA-reduktaza ingibitorlari (statinlar)ni maksimal ko'tara oladigan dozada tayinlanishi tavsiya qilinadi	I	A	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/1/111/5556353?login=false
2 yil davomida gipolipidemik preparatlar fonida takroriy yurak-qon tomir hodisasini o'tkazgan YuIK bor bemorlarga PZLP XSning maqsad qilingan $<1,0$ mmol/l qiymatiga erishish uchun kombinatsiyali gipolipidemik terapiya imkoniyatini ko'rib chiqish tavsiya qilinadi	Iib	B	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/1/111/5556353?login=false

<p>Stabil YuIK bor bemorlarda GMG-KoA-reduktaza ingibitorlari (statinlar)ni maksimal ko'tara oladigan dozalari fonida PZLP XSning maqsad qilingan darajasi (<1,4 mmol/l)gacha va uning dastlabki miqdoridan 50% ga pasayishi erishilmagan yoki GMG-KoA-reduktaza ingibitorlari ko'tara olinmagan hollarda YuQTA profilaktikasi maqsadida davolashga ezetimibni qo'shish tavsiya qilinadi</p>	<p>I</p>	<p>B</p>	<p>https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/1/111/5556353?login=false</p>
<p>Stabil YuIK bor bemorlarda GMG-KoA-reduktaza ingibitorlari (statinlar)ni maksimal ko'tara oladigan dozalarini ezetimib bilan kombinasiyada qo'llanilishiga qaramay, PZLP XSning maqsad qilingan darajasiga erishilmagan yoki GMG-KoA-reduktaza ingibitorlari ko'tara olinmagan hollarda YuQTA profilaktikasi maqsadida 9-tipdagi subtilizin-keksin protein konvertaza (PCSK9) ingibitorlaridan (ATX-tasnifnomasiga muvofiq boshqa gipolipidemik vositalar, C10AX) birini (alirokumab yoki evolokumabni) tayinlash tavsiya qilinadi</p>	<p>I</p>	<p>B</p>	<p>https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/1/111/5556353?login=false</p>
<p>Stabil YuIK bor bemorlarda GMG-KoA-reduktaza ingibitorlari (statinlar)ni maksimal ko'tara oladigan dozalarining ezetimib bilan kombinasiyada qo'llanilishiga qaramay, PZLP XSning maqsad qilingan darajasiga erishilmagan yoki GMG-KoA-reduktaza ingibitorlari ko'taraolinmagan hollarda YuQTA profilaktikasi maqsadida 9-tipdagi subtilizin-keksin protein konvertaza (PCSK9) ingibitorlari (ATX-tasnifnomasiga muvofiq boshqa gipolipidemik vositalar, C10AX)dan birini (alirokumab** yoki evolokumab**ni) tayinlash tavsiya qilinadi</p>	<p>IIa</p>	<p>A</p>	<p>https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/1/111/5556353?login=false</p>

Sharhlar: YuIKning barcha shakllarida UXS va PZLP XS darajalari qanday bo'lishidan qat'i nazar, GMG-KoA-reduktaza ingibitorlari bilan terapiyani diagnoz qo'yilishi bilan oq

boshlash lozim (agar to'g'ri qarshi ko'rsatmalar bo'lmasa). terapiyaning samaradorligi PZLP XS darajasi bo'yicha baholanadi: ushbu ko'rsatkichning optimal qiymati <1,4 mmol/l bo'lishi va dastlabki darajasidan 50% ga pasayishi kerak. Isbotlanganki, UXS va PZLP XS qiymatlarining kamayishi populyasiyadagi umumiy o'lim darajasining va barcha YuQTA xavfining taxminan 20% ga pasayishi bilan birga kuzatiladi. Lipidlar darajasini pasaytiruvchi terapiya surunkali YuKda nojo'ya ta'sirlar bo'lmaganda uzoq muddat (cheksiz) o'tkaziladi. PCSK9 ingibitorlarini keng qo'llash uning bahosi yuqoriligi sababli cheklangandir.

4.2.4 Renin-angiotenzin-aldosteron tizimi blokatorlari

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Stabil YuK bor bemorlarda prognoz uchun katta ahamiyatga ega yondosh kasalliklar (infarktdan keyingi kardioskleroz, AG, QD, YuE) mavjud bo'lganda YuQTA profilaktikasi uchun AO'F yoki angiotenzin II reseptorlari antagonistlarini tayinlash tavsiya etiladi	I	A	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

Sharhlar. MI o'tkazgan bemorlarda, shuningdek, yondosh QD mavjudligida AO'F umumiy o'lim darajasini, MI, insult rivojlanishi, Yue taraqqiy etishi xavfini kamaytiradi. Stabil YuK bor bemorlarga AO'Fni tayinlash AG, ChQ OF $\leq 40\%$ bo'lgan SYuE, boshlang'ich va o'rtacha azotemiyali surunkali buyrak kasalligi mavjud bo'lganda ko'rsatilgan. YuK mavjudligida tayinlash uchun preparatlar: perindopril, ramipril. AO'Fni ko'tara olmaganda xuddi shu ko'rsatmalar bo'yicha alternativa sifatida angiotenzin II reseptorlari antagonistlarini tayinlanadi. YuK va SYuE mavjudligida tayinlash uchun preparatlar: lozartan, valsartan, kandesartan [10].

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
AO'F va β -ABning terapevtik dozalarini qabul qilayotgan, MI o'tkazgan, ChQ OF $\leq 35\%$ bo'lgan, shuningdek, QD ga ega bemorlarga yurak-qon tomir o'limini profilaktika qilish uchun spironolakton** (25 mg/sut.) yoki eplerenon tayinlanishi imkoniyatini ko'rib chiqish tavsiya etiladi [112, 113]. Buyrak funksiyasi buzilgan (hkFT < 45 ml/min/1,73 m ²) va qon zar-dobidagi kaliy miqdori $> 5,0$ mmol/l bo'lgan bemorlarga aldosteron antagonistlari qo'llanilayotganda ehtiyotkorlikka rioya qilish lozim	Iib	B	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

4.2.5 Stabil Yuikning alohida shakllarini medikamentoz davolash

Mikro-qon tomir stenokardiyani davolash uning paydo bo'lishi asosiy mexanizmi – mikro-qon tomir disfunktsiyasiga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
koronar qon oqimi <2,0 anomal zaxirali yoki mikrosirkulyator rezistivlik ≥ 25 birlik bo'lgan, asetilxolin-provokasion sinamasi manfiy bemorlarga BAB, organik nitratlar, KKB, AO'Fni tayinalsh, hayot tarzini o'zgartirish, tana vazini korreksiya qilish tavsiya etiladi .	I	A	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

Sharhlar: mikro-qon tomir stenokardiyali bemorlarda xurujlar profilaktikasi uchun yuqorida sanab o'tilgan preparatlarning samarasizligida qo'shimcha tarzda ranolazin nikorandil, aminofillin** tayinlanishi mumkin.

Vazospastik stenokardiya

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Vazospastik stenokardiya diagnozini stenokardiya xuruji vaqtida aniqlangan ST segmentining tranzitor ishemik o'zgarishlari (tinch holatda EKG ni qayd etish, rasshifrovka qilish, EKG natijalarini ta'riflash va interpretasiya qilish) asosida qo'yish tavsiya etiladi. Prinsmetall stenokardiyali bemorlar uchun xuruj vaqtida ST segmentining ko'tarilishlari xosdir	I	A	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false
Vazospastik stenokardiya diagnostikasida xuruj vaqtida EKG ning 12 ta ushlanmasidagi yoki yurak ritmini 12 taushlanmadaprolongasiyali Xolter monitorlashdagi yoki yurak o'tkazuvchi tizimining elektrik faolligini uzoq muddat qayd etuvchi implantasiya qilingan halqali registratori natijalari bo'yicha qayd etilgan spontan ishemik o'zgarishlari (odatda ST segmentining ko'tarilishi)ga tayanish lozim. Vazospastik stenokardiyali barcha bemorlarda medikamentoz terapiya samaradorligini baholash maqsadida yurak ritmini Xolter monitorlash tavsiya etiladi	I	A	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

Ehtimol qilingan vazospastik stenokardiyali bemorlarga KA stenozlarini istisno qilish maqsadida KAG o'tkazish tavsiya etiladi. Vazospazmning angiografik tasdiqlanishi kateterizasion laboratoriyada farmakologik sinamadan o'tkazishni talab etishi mumkin	I	A	https://www.escardio.org/Guidelines/Clinical-Practice-Guidelines/ESC-EACTS-Guidelines-in-Myocardial-Revascularisation-Guidelines-for
---	---	---	---

Sharhlar: kuyidagi hollarda koronar spazmni provokasiya qilish musbat bo'lishi mumkin:

a) anginoz xurujda, b) EKGda ishemik o'zgarishlarda, v) epikardial arteriyalarning yaqqol ifodalangan vazokonstriksiyasida. Uchta hodisaning yo'qligi hollarida sinama natijasini shubhali deb hisoblash kerak.

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Epikardial yoki koronar oqim mikro-qon tomirlarning vazomotor buzilishlari bo'lgan bemorlarga stenokardiya xurujlarining profilaktikasi uchun ateroskleroz XOni va hayot tarzini o'zgartirishga qo'shimcha tanlov preparatlari sifatida KKB yoki prolongasiyali organik nitratlar tavsiya etiladi	I	A	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

Sharhlar: nifedipin** o'zining samaradorligini shuningdek KA ni stentlash bilan shartlangan KA spazmini bartaraf etishda namoyish etdi. Stabil stenokardiyali alohida guruhlar (keksa yosh, buyrak va jigar etishmovchiligi) bemorlarida preparatlarni qo'llash xavfsiz foydalanish bo'yicha yo'riqnomalarga muvofiq amalga oshirish lozim (zarurat tug'ilganda dozalarni pasaytirish mumkin).

5. Tibbiy yordam ko'rsatish turidan kelib chiqib shifoxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalari:

EKJ IC	Stabil YuIK bor bemorlarni hospitalizatsiya qilish to'liq hajmdagi medikamentoz davolash o'tkazilishiga qaramay, stenokardiyaning yuqori FS (III–IV FS) saqlanganda invaziv tekshiruvlar o'tkazish va/yoki miokard revaskulyarizatsiyasi uchun tavsiya etiladi
EKJ IC	Stabil YuIK bor bemorlarni hospitalizatsiya qilish ambulator bosqichda medikamentoz davolashga bo'ysunmaydigan Yue

	dekompensasiyasi holatlarida tavsiya qilinadi [
EKJ IC	Stabil YuIK bor bemorlarni gospitalizasiya qilish yurak ritmi va/yoki o'tkazuvchanligining ahamiyatga ega yoki hayotga xavf soluvchi buzilishlari paydo bo'lganda tavsiya qilinadi
EKJ IC	Birinchi paydo bo'lgan stenokardiyaga yoki avval mavjud surunkali YuIK o'tkirlashuviga (O'KSga) gumon qilingan barcha bemorlarni shoshilinch ravishda iloji bo'lsa, invaziv davolash o'tkazish imkoniyati bo'lgan stasionarga gospitalizasiya qilish tavsiya qilinadi
IC	Gospitalizasiyagacha bo'lgan bosqichda shikoyatlar va anamnez yig'ishdan, ko'ruvdan, EKG qayd qilishdan tashqari O'KS diagnozini tasdiqlash yoki istisno qilishga qaratilgan diagnostik chora-tadbirlar o'tkazish tavsiya etilmaydi

Sharhlar: O'KSga gumon qilingan ko'pchilik bemorlar uchun chuqurlashtirilgan differensial diagnostika talab qilinganligi tufayli ularni ko'p tarmoqli stasionarga gospitalizasiya qilish optimal hisoblanadi. noxush oqibatning yuqori xavfi belgilari bo'lgan bemor invaziv davolash imkoniyatlari mavjud stasionarga gospitalizasiya qilinishi kerak. Gospitalizasiyani kechiktirishga olib keladigan har qanday gospitalizasiyagacha diagnostik tadbirlarni o'tkazish mumkin emas.

EKJ IC	Surunkali YuIK bor bemorlarga o'tkirlashuv bo'lmagan vaqtda vrach-terapevt yoki (ko'rsatmalar mavjud bo'lganda) vrach-kardiolog nazorati ostida ambulator bosqichda davolash o'tkazilishi tavsiya etiladi .
EKJ IC	Surunkali YuIK bor bemorlarga o'tkirlashuv bo'lmagan vaqtda KAG (shuningdek, KAG bajarilayotgan paytda bir qator diagnostik tekshiruvlar) o'tkazish uchun stasionarga yoki kunduzgi stasionarga va miokard revaskulyarizasiyasini (TOKA yoki ksh) bajarish uchun stasionarga gospitalizasiya qilinishi tavsiya qilinadi.

5.2 Kasalxonada davollash taktikasi

Nomedikamentoz va medikamentoz terapiya ambulatoriyadagi davollash bilan bir xil. Kasalxonada yukori texnologiyali davollash usuliga muxtoj bulgan bemorlarga oshirish tugrisidagi karorni kabul kilish kerak

Yurak ishemik kasalligi uchun yukori texnologiyali aralashuvlar va jarroxlik davollanish taktikalari

TOKA -Teri orkali koronar aralashuv (stentlash va angioplastika)

AKSh – Aortakoronar shuntlash.

**«QARI VA KEKSA YoShLI BEMORLARDA YuRAK QON
TOMIR KASALIKLARI - SURUNKALI YuRAK IShEMIK
KASALLIGI» NOZOLOGIYaSIDA TIBBIY ARALASHUVLAR
BO‘YIChA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI**

TOSHKENT – 2025

Kirish

Jarrohlik yo‘li bilan davolanishga yo‘llanma

To‘g‘ri tanlangan davolashda, parhez va turmush tarzi bo‘yicha vrach tavsiyalariga aniq va izchil rioya qilinganda YuIK uzoq vaqt stabil shaklda kechishi mumkin va sizning mehnatga layoqatingiz hech qanday cheklanmaydi. Kasallik taraqqiy etgan hollarda, stenokardiya xurujlari yoki yurak etishmovchiligi simptomlari ko‘paysa va medikamentoz terapiya kam samarali bo‘lib qolsa, vrach sizga jarrohlik yo‘li bilan davolanishni taklif qilishi mumkin. Jarrohlik yo‘li bilan davolanishning zamonaviy uslublari (koronar qon tomirlarni shuntlash yoki stentlash) bemorlar holatini ancha yaxshilashga, og‘ir asoratlar, jumladan, o‘lim oqibati xavfini pasaytirishga, ba‘zi hollarda esa dori preparatlariga ehtiyojni kamaytirishga imkon beradi. Jarrohlik yo‘li bilan davolanishning eng yaxshi uslubini tanlash uchun bemor dastlab stasionarda tekshiriladi. Jarrohlik yo‘li bilan davolash to‘g‘risidagi qarorni doim mutaxassis vrachlar albatta bemorning fikrini hisobga olgan holda qabul qiladilar

Turli xil ta‘sir mexanizmlariga ega bo‘lgan dori-darmonlarning ko‘pligiga qaramasdan, hozirda mavjud bo‘lgan barcha terapevtik usullar har doim ham samarali va mos kelmaydi. Tibbiyotning rivojlanishi bilan miyokard ishemiyasining sabablarini aniq tashxislash usullari paydo bo‘ldi. Shunday qilib, ikkita asosiy aloqa mavjud: stentlash va koronar arteriya bypass payvandlash. To‘g‘ridan-to‘g‘ri bajarilgan koronar angiografiyadan so‘ng amalga oshiriladi. PCI (teri orqali aralashuv) stentsiz va stent yordamida transluminal koronar angioplastikani (PTCA) o‘z ichiga oladi. PCI femoral, radial yoki brahiyal arteriya orqali teri orqali kirish bilan amalga oshiriladi. Radial kirish doimiy ravishda aniq qo‘llaniladi, chunki u bemorning noqulayligini kamaytiradi, operatsiyadan keyin turish vaqtini sekinlashtiradi va ma‘lum asoratlar (masalan, qon quyqalari, psevdonevrizma shakllanishi) tezlashadi.

Amalga oshirish usuli

Katta periferik arteriyaga yo‘naltiruvchi kateter kiritiladi va koronar arteriyalar ostiga yetguncha oldinga suriladi. Balon kateteri floroskopiya yoki tomir ichiga ultratovush tekshiruvchi ostida stenoz joyiga yo‘naltiriladi, so‘ngra aterosklerotik plakni maydalash va arteriya lümenini kengaytirish uchun shishiriladi. Jarayondan so‘ng o‘zgarishlarni hujjatlashtirish uchun angiografiya takrorlanadi. Agar kerak bo‘lsa, prosedura 2 yoki 3 tomirda amalga oshiriladi.

Stentlash

Koronar arteriya stentlari kengaytiriladigan simli to‘r silindrlari bo‘lib, ular stenoz joylarini ochiq saqlashga yordam beradi. Quyidagi hollarda stent qo‘yish eng mos keladi:

Ilgari teri orqali koronar angioplastikadan o‘tmagan yirik koronar arteriyalardagi kichik jarohatlar

Vena safenadan mahalliy buzilishlar paydo bo‘lganda

PCI yordamida og‘ir stenozlarni davolashda. Stent o‘rnatilgandan so‘ng, dori-darmonlarni davolanishning o‘ziga xos xususiyatlari davolash bobida ko‘rsatilgan.

PCI uchun nisbiy qarshi ko‘rsatmalar

- koagulopatiya

- Asosan butun miyokardni ta'minlaydigan bitta yirik tomirning shikastlanishi
- Mahalliy tomirdan kollateral qon oqimi bo'lmaganda yoki chap oldingi tushuvchi arteriyaga ilgari qo'llaniladigan shunt bo'lmaganda chap koronar arteriyaning kritik stenoz
- Fokal stenozlarsiz diffuz qon tomir lezyonlari
- Giperkoagulyasiya bilan kechadigan holatlar
- Etarli darajada samarali bo'lmagan oldingi kardiojarrohlik
- stenoz <50%
- Koronar arteriyaning to'liq tiqilib qolishi

Koronar shuntlash (SABG), shuntlar (tomir greftlari) yordamida koronar tomirning toraygan joyini chetlab o'tib, yurak arteriyalarida qon oqimini tiklashga imkon beradigan operatsiya. Bypass operatsiyasini stentlashdan ajratish kerak, ya'ni. stentni o'rnatish - yurakning koronar tomirlarining lümenine joylashtirilgan va patologik jarayon bilan toraygan maydonning kengayishini ta'minlaydigan maxsus ramka.

Ko'rsatmalar

- dori terapiyasiga mos kelmaydigan angina pektorisi;
- chap koronar arteriya va asosiy yurak arteriyalari magistralining 50% dan ortiq torayishi;
- Otish fraksiyasi kamayganda .
- Ko'p tomirli lezyon
- 1 yoki undan ortiq tomirlarning shikastlanishi va anevrizmaning aniqlanishi (eksizyon uchun)

Qarshi ko'rsatmalar

- Chap qorincha otish fraksiyasining 30% dan kamayishi
- og'ir yurak etishmovchiligi
- Og'ir birga kelgan kasalliklar
- Oxirgi 2 oy ichida BMKAUB.
- Miokard va qon tomirlarida diffuz o'zgarishlar.

Jarrohlik yo'li bilan davolash (miokard revaskulyarizatsiyasi)

Davolash uslubini tanlash to'g'risidagi qaror KAG natijalari, tekshiruvning noinvaziv va invaziv uslublari ma'lumotlari va klinik ma'lumotlar tahlili bo'yicha rentgenendovaskulyar jarroh, yurak-qon tomir jarrohi va vrach-kardiolog tomonidan qabul qilinadi. klinikada yurak- qon tomir jarrohi bo'lmasa, ChKA o'zagining SYNTAX shkalasi bo'yicha >32 balli shikastlanishida va SYNTAX shkalasi bo'yicha ko'p qon tomirli shikastlanish >23 ballni tashkil qilganida teletibbiyot maslahatlari imkoniyatidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Stabil stenokardiyali va miokardning og'riqsiz ishemiyasi bor bemorlarda revaskulyarizatsiya

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Prognozni yaxshilash uchun quyidagi hollarda: ChKA o'zagining >50% shikastlanishida, OTKA ning >50% proksimal stenozida, >50% stenozli ikki va uch qon tomirli	I	B	https://www.escard.io.org/Guidelines/Clinical-Practice-Guidelines/Dyslipidaemias-

shikastlanishda va ChQ OF \leq 35% da, Zo'riqmali stress-sinamalarini o'tkazganda o'tuvchi ishemiya maydonining kattaligida (ChQ maydoni >10%) yoki katta QOFZ da, yoki yagona saqlangan KA ning >50% stenozida (hujjatlashtirilgan miokard ishemiyasining mavjudligida; yoki QOFZ<0,80, QOMZ<0,89 da; yoki >90% stenozda) revaskulyarizasiya o'tkazish tavsiya etiladi zadokumentirovannoy ishemii miokarda; ili FRK<0,80, MRK<0,89; ili stenoz >90%)			Management-of
--	--	--	-------------------------------

Sharhlar: stress-induksiyalangan miokard ishemiyasining katta zonasi aniqlangan bemorlarda KAda aralashuv prognozni yaxshilaydi. Miokard ishemiyasining katta zonasi to'g'risida, shuningdek, yirik KA: ChKA o'zagi, OTKA proksimal qismining gemodinamik ahamiyatga ega shikastlanishi, ChQ funksiyasi pasaygan ikki yoki uch qon tomirli shikastlanishi, yagona saqlangan koronar qon tomir shikastlanishi mavjudligi bo'yicha fikr yuritish mumkin.

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Ishemiya simptomlarining ifodalanganligini kamaytirish uchun KAning gemodinamik ahamiyatga ega stenozlarida (zo'riqmali stress-sinamalar va/yoki QOFZni o'lchash natijalari bo'yicha), optimal medikamentoz terapiyaga qaramay, jismoniy faollikni cheklovchi stenokardiya yoki uning ekvivalentlari mavjudligida revaskulyarizasiya o'tkazish tavsiya etiladi	I	B	https://www.escard.io.org/Guidelines/Clinical-Practice-Guidelines/Dyslipidaemias-Management-of

Sharhlar: YuIK bor bemorlarga optimal medikamentoz terapiyaga qaramay, stenokardiya simptomlari saqlangan holda KAning gemodinamik ahamiyatga ega shikastlanishlari mavjudligida TOKA o'tkazish ko'rsatilgan. Stenoz ahamiyatini aniqlashning alternativ usuli bo'lib diagnostik KAGda QOFZni o'lchash hisoblanadi QOFZ \geq 0,80 bo'lgan stenozlarda faqat medikamentoz terapiya foydasiga aralashuvdan voz kechish klinik tadqiqotlarda o'zining asoslanganligini ko'rsatdi. Qayd etish lozimki, KA stenozlarining 90% dan kamiga ularning gemodinamik ahamiyatini isbotlash uchun (hujjatlashtirilgan miokard ishemiyasi, jumladan, miokardni vizualizasiya qilgan holda zo'riqmali sinamalar natijalari bo'yicha yoki QoFZ ni aniqlash kabi) qo'shimcha sinamalar zarur [1].

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
---------	------	--------	--------

KA proksimal segmentlari stenozlaridagi TOKA (70% dan ko'pi) aortal klapaning transkateter implantatsiyasi o'tkazalishi rejalashtirilgan bemorlarda ko'rib chiqilishi kerak	Ila	C	https://www.escardio.org/Guidelines/Clinical-Practice-Guidelines/Dyslipidaemias-Management-of
---	-----	---	---

Vazospastik stenokardiyali bemorlarda miokard revaskulyarizatsiyasi

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
Vazospastik stenokardiyada miokard revaskulyarizatsiyasi (TOKA yoki ksh) tavsiya etilmaydi	III	C	https://academic.oup.com/eurheartj/article/41/3/407/5556137?login=false

Miokard revaskulyarizatsiyasi uslubini tanlash

Tavsiya	Sinf	daraja	iqibos
salbiy yurak-qon tomir hodisalari xavfini minimallashtirish maqsadida miokardning revaskulyarizatsiyasi uslubini tanlash uchun quyidagilarni: KA shikastlanishining anatomik xususiyatlarini; yondosh patologiyani va aralashuvning ehtimol qilingan xavflarini; jarrohlik aralashuvining aniq uslubi o'tkazilishiga bemorning roziligini hisobga olish kerak	I	A	https://www.escardio.org/Guidelines/Clinical-Practice-Guidelines/Dyslipidaemias-Management-of

Sharhlar: texnik jihatdan ham ksh, ham tokA o'tkazish mumkin bo'lgan holda bemorning har qanday jarrohlik aralashuviga roziligi bo'lganda, uslubni tanlash asosan koronar oqim shikastlanishining o'ziga xos anatomik xususiyatlariga (shikastlanishlar soni va xususiyati, bifurkasiyalar va tomir og'izlarining jalb qilinganligi, KA davomiyligi, qing'irligi va kalsinoziga) bog'liq. Aniqlik darajalari va adabiyot manbalari ko'rsatilgan holda koronar oqim jalb qilinganligiga bog'liq miokard revaskulyarizatsiyasining endovaskulyar va jarrohlik uslublari taqdim qilingan

Stabil YuIK bor, koronar anatomiyasi ikkala uslub uchun to'g'ri keladigan va past jarrohlik o'lim darajasi prognoz qilingan bemorlarda revaskulyarizatsiya turlari (ksh yoki toka) bo'yicha tavsiyalar.

koronar oqim shikastlanishining lokalizatsiyasi va og'irligi	KSh		ChKV		Adabiyot manbasi
	Sinf	Daraja	Sinf	Daraja	

Bitta yoki ikkita qon tomir shikastlanishi va OPTA proksimal stenozining yoʻqligi	IIIb	C	I	C	https://scardio.ru/ratings/uploads/504.pdf?29972896
OPTA proksimal stenoz mavjud bitta qon tomir shikastlanishi	I	A	I	A	https://scardio.ru/ratings/uploads/504.pdf?29972896
OPTA proksimal stenoz mavjud ikkita qon tomir shikastlanishi	I	B	I	C	https://scardio.ru/ratings/uploads/504.pdf?29972896
SYNTAX shkalasi boʻyicha kam (0–22) balli ChkA shikastlanishi	I	A	I	A	https://scardio.ru/ratings/uploads/504.pdf?29972896
SYNTAX shkalasi boʻyicha oʻrta (23–32) balli ChkA shikastlanishi	I	A	IIa	A	https://scardio.ru/ratings/uploads/504.pdf?29972896
SYNTAX shkalasi boʻyicha yuqori (≥ 33) balli ChkA shikastlanishi	I	A	III	B	https://scardio.ru/ratings/uploads/504.pdf?29972896
